O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI

NAMAZOVA NILUFAR KAMBARKULOVNA

O‘ZGARUVCHAN MUHITDA MATBUOTNING YASHOVCHANLIK IMMUNITETI (1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti misolida)

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 050/070(09)(091)301/323(575.1)

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Science (DSc) in Philological sciences

Namazova Nilufar Kambarkulovna
O‘zgaruvchan muhitda matbuotning yashovchanlik immuniteti (1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti misolida)..... 3

Намазова Нилуфар Камбаркуловна
Иммунитет жизнестойкости печати в изменяющейся среде (на примере узбекской печати 1906–1940-х годов) 31

Namazova Nilufar Kambarkulovna
The Viability Immunity of the Press in a Changing Environment (The Case of the Uzbek Press from 1906 to 1940)……..... 65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……..……..……..……..…….. 70

O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI

NAMAZOVA NILUFAR KAMBARKULOVNA

O‘ZGARUVCHAN MUHITDA MATBUOTNING YASHOVCHANLIK IMMUNITETI (1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti misolida)

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Fil1964 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.uzjoku.uz_) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Dosmuxamedov Xurshid Nabiyevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Karimov Bahodir Nurmetovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Mamatova Yoqutxon Muhammadjonovna filologiya fanlari doktori, professor
	Masharipova Tamara Joldasbayevna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “19” noyabr kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88.Tel: (99871)207-09-06; journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88.Tel: (99871)207-09-06; journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil “10” noyabrda tarqatildi.

(2026-yil “10” noyabr dagi 143 raqamli reestr bayonnomasi.)

Sherzodxon Qudratxo‘ja
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

Alijon Safarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.d. (DSc), dotsent

Nozima Muratova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH

(doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Global axborot muhiti keskin o‘zgarib borayotgan davrda an’anaviy ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash, yashovchanlik imkoniyatlarini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Media yashovchanligi xalqaro media taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida axborot xavfsizligi, demokratik kommunikatsiya jarayonlarini ta’minlashning muhim shartiga aylanmoqda. An’anaviy daromad manbalarining qisqarishi, auditoriya axborot iste’molining o‘zgarishi, dezinformatsiya, urushlar hamda turli siyosiy va iqtisodiy bosimlar sharoitida ommaviy axborot vositalari, jumladan, matbuotning barqaror rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda matbuotning yangi texnologik, ijtimoiy va kommunikatsion muhitga moslashuvi, bosma nashrlarning raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va gibrid formatlar bilan uyg‘unlashuvi, ularning mazmunan va tashkiliy jihatdan yangilanishi masalalari borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, matbuotning tarixiy tajribasini o‘rganish asosida bugungi o‘zgaruvchan axborot muhitida uning yashovchanligini ta’minlash masalalarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish, fuqarolarning axborot olish huquqini ta’minlash va jurnalistika sohasini qo‘llab-quvvatlashga “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar asosida alohida e’tibor qaratilmoqda. Strategiyadagi “Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish”[1] vazifasi ommaviy axborot vositalari, jumladan, matbuotning erkin va barqaror faoliyat yuritishi bilan bevosita bog‘liq. Matbuotning bugungi o‘zgaruvchan sharoitlarda faoliyat shakllari va moliyalashtirish yo‘llarini yangilash bilan birga, ishonchli axborot yetkazish va jamoatchilik fikrini ifodalash kabi ijtimoiy vazifalarini bajara olishi, ya’ni uning yashovchanligi fuqarolarning axborotga oid huquqlari amalda ro‘yobga chiqishining muhim shartlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, matbuot yashovchanligi immuniteti mohiyatini asoslash, bunda o‘zbek milliy matbuotining tarixiy tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Zero, o‘tgan asrning birinchi choragida yurtimizda kechgan keskin ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida jadid ziyolilari matbuotni millatni uyg‘otish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, taraqqiyotga xizmat qiluvchi minbar sifatida saqlab qolish uchun kurashgan edilar. O‘zbek matbuotining shakllanishi, o‘zgaruvchan muhitga moslashishi va mafkuraviy bosimlar sharoitida yashab qolish tajribasini o‘rganish orqali matbuot

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–21-son Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/8050769 (murojaat sanasi: 12.10.2026).

faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydigan omillarni aniqlash, yashovchanlik qonuniyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son, 2019-yil 2-fevraldagi “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5653-son farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotning turli ijtimoiy-siyosiy muhitlarda shakllanishi, barqaror rivojlanishi, yashovchanligi masalalari, o‘zbek milliy matbuotining tarixiy rivojlanishi, davomiyligi uchun kurash tarixi, bu jarayonlarda jadid jurnalistlarining fidokorona faoliyati haqidagi ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, UNESKO, Xalqaro jurnalistlar markazi hamda Illinoys, Pensilvaniya, Kaliforniya, Florida, Kolumbiya, Indiana universitetlari (AQSh), Oxford universiteti (Buyuk Britaniya), Gamburg universiteti (Germaniya), Oslo universiteti (Norvegiya), Toronto universiteti (Kanada), Tokio universiteti (Yaponiya), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Qozog‘iston milliy universiteti (Qozog‘iston), Istanbul, Gazi universitetlari (Turkiya), Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Matbuotning barqarorlik omillari, tarixiy rivojlanish jarayonidagi yashash uchun kurash tajribasi, xususan, o‘zbek matbuotining o‘zgaruvchan muhitdagi o‘ziga xos faoliyati tarixini ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar asosida

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: http://www.press.uillinois.edu; www.indiana.edu; https://www.cambridge.org; https://www.istanbul.edu.ru; https://www.peaceinsight.org/en/organisations/center-for-global-peace-journalism; https://farabi.university/university; https://www.uzswlu.uz/; https://uzjoku.uz/uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: matbuotning shaklan o‘zgarishi va inson ongining kengayishidagi ta’siri yashovchanligining omili ekani asoslangan (Toronto universiteti, Kanada), matbuotning yashovchanligi mediareallikning simulyatsiyadan xoli ekani bilan bog‘liq xulosalar ishlab chiqilgan (Parij X–Nanter universiteti, Fransiya), axborotning energetik tabiati, OAV barqarorligining jamiyat psixologiyasi, axborotni qabul qilish holatiga bog‘liqligi asoslangan (O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O‘zbekiston), Turkiston matbuoti jadidchilik harakatida muhim o‘rin tutishi tadqiq qilingan (Karlton kolleji, Minnesota, AQSh; Fransiya Milliy ilmiy tadqiqotlar markazi, Fransiya; Tokio xorijiy tadqiqotlar universiteti, Yaponiya).

Bugungi kunda jahon miqyosida mediani qo‘llab-quvvatlash borasidagi xalqaro loyihalar asosida media barqarorlik, matbuotning yashovchanlik omillari hamda jurnalistika tarixini turli rakurslarda o‘rganish borasida qator, xususan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: media barqarorlik va media yashovchanlik omillarini aniqlash, strategiyalarini yaratishning ilmiy va amaliy loyihalarini ishlab chiqish; mediatuzilmalarning institutsional mustahkamligi, iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ta’minlash mexanizmlarini aniqlash; milliy va mintaqaviy jurnalistika tarixini zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida qayta o‘rganish; Turkiston jadid matbuotini turli rakurslarda tadqiq qilish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda matbuotning o‘ziga xos xususiyatlari, mediamuhitdagi o‘rni, jadid va sho‘ro matbuotining rivojlanish jarayonlari, ijtimoiy-siyosiy muhit ta’siridagi transformatsiyasi, funksiya va prinsiplarning yangilanishi masalalari bo‘yicha A. Avloniy, Z. Said, T. Ernazarov, S. Qosimov, B. Qosimov, H. Uzoqov, N. Karimov, A. Jalolov, X. O‘zganboyev, Sh. Turdiyev, H. Boltaboyev, B. Do‘stqorayev, S. Ahmad, N. Abduazizova, M. Xudoyqulov, B. Karimov, H. Saidov, S. A’zamxo‘jayev, X. Do‘stmuhamedov, F. Mo‘minov, P. Mo‘minova, Ya. Mamatova, Yu. Hamdamov, N. Qosimova, N. Toshpo‘latova, G. Nishonova, A. Safarov, Z. Mirzayeva, S. Halimova, Z. Ahrorova, I. G‘afurov, G. Soatova tadqiqot olib borgan[3].

[3] Said Z. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar /1870-1927/. – T., 1927.; Avloniy A. Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi // Turkiston. – 1924. – 24-iyun; Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана. – Т.: Ўқитувчи, 1976.; Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002.; Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008.; Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени. – Т.: Info capital group, 2019.; Abduazizova N. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – T.: Sharq, 2002.; Xudoyqulov M. O‘zbek hajviy publitsistikasi: shakllanish va rivojlanish tamoyillari. – T.: Universitet, 1995.; Узоқов Ҳ. Ўзбекистонда мустақиллик учун кураш тарихи (Журналистлар фаолияти мисолида). Тарих фан док...дисс. –Т., 1996.; Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т.: Маънавият, 2009.; Saidov H. Jamiyatning demokratlashuvi jarayonida axbort janrlarining rivojlanish omillari. Filol. fan. dok. ... diss. – T., 2021.; Нишонова Г. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойна” журналининг ўрни ва аҳамияти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2008.; Пардаев Қ. “Ал-Ислоҳ” журнали ва XX аср ўзбек адабиёти. –Т.: Маҳалла ва оила, 2021.; Жалолов А., Ўзганбоев Х. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. – Т.: Фан, 1993.; Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.; Содиқов Ҳ. XX аср бошларида чоризмнинг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати ва истиқлол учун кураш. Тарих фан. док. ... дисс. – Т., 1994.; Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. – Т.: Akademnashr, 2016.; Турдиев Ш. Жадидизм масаласига бағишланган мунозара // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1998. – 2-сон.; Аҳмад С. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Т.: Info Capital Books, 2024.; Ғафуров И. Миллий хаёллар ва “Садои Туркистон” // ЎзАС. – 1994. – 11 март. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. – T.:Universitet, 2008.; Мўминов Ф. Валюта власити. – Т.:IDEAL PRESS. 2023.; Муминова П. Современная международная журналистика:

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida media faoliyatining barqarorligi, rivojlanish omillari, o‘zgaruvchan axborot muhitiga moslashish imkoniyatlari V. V. Voroshilov, Ye. P. Proxorov, N. B. Kirilova, A. P. Tertychniy, V. M. Vinichenko, G. Ibrayeva, L. Losev, P. N. Kirichyokning ishlarida tadqiq qilingan[4].

Matbuot, axborot va kommunikatsiya jarayonlarining mohiyati, tarixiy rivojlanishi, barqarorlik omillari hamda o‘zbek matbuotining Turkiston jadidchilik harakatidagi o‘rni, jadid publitsistikasi va jurnalistlar faoliyati jahonning nazariyotchi olimlari M. Makluen, N. Luman, E. Toffler, J. Bodriyyar, J. Tompson, J. Habermas, B. Kovach, D. MakKuel asarlarida, shuningdek, A. Xolid, E. Olvort, A. Bennigsen, I. Baldauf, S. Dudoignon, H. Komatsu, Y. Kosugi, T. Xo‘ja o‘g‘li, B. Hayit tadqiqotlarida ochib berilgan[5].

O‘zbek milliy matbuotining 1906–1940-yillar tarixi hozirga qadar turli aspektlarda tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, matbuotning yashovchanlik immuniteti nuqtayi nazaridan o‘rganilgan emas. Mazkur dissertatsiyada jadid va sho‘ro matbuotiga yangicha yondashuv asosida yashovchanlik immuniteti masalasi tadqiq qilinmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-

---

тенденции, проблемы и перспективы (концептуально-функциональный анализ). НУУ им. Мирзо Улугбека. Дисс. ... док. филол. наук. –Т., 2002.; Дўстмуҳаммад Х. Ахборот, мўъжиза, жозиба, фалсафа. – Т.: Янги аср авлоди, 2013..; Маматова Ё. Современная периодическая печать Узбекистана: система, тематика, тенденции и проблемы функционерования. –Т.: Национальное общество философов Узбекистана, 2006.; Toshpo‘latova N. “O‘zbekistonda tahliliy jurnalistikaning kommunikativ, interaktiv va integrativ tabiati (davriy nashrlar materiallari misolida). Fil. fan dok... diss. –T., 2026.; Hamdamov Yu. Taraqqiyot mezoni. – T.: O‘zbekiston, 2013.; Qosimova N. va boshq. Bosma ommaviy axborot vositalari tahririyatlari uchun qo‘llanma. – T., 2008.

[4] Ворошилов В. Журналистика. – СПб. Издательство Михайлова В.А. 1999.; Прохоров Е. Журналистика и демократия. – М.: Аспект Пресс, 2004.; Кириллова Н. Медиалогия как синтез наук. – М.: Академический Проект, 2013.; Тертычный А.А. Аналитическая журналистика: познавательно-психологический подход. – М.: Гендальф, 1998.; Виниченко В.М. История зарубежной журналистики. – Ростов на Дону: Изд-ство Южного федералного университета, 2018.; Ибраева Г. Зарубежная журналистика: история, теория, практика зарубежных СМИ. – Алматы: Қазақ университеті, 2015.; Лосев Л. Эзопов язык в русской литературе (современный период). – М.: Новое литературное обозрение, 2024.; Киричёк П.Н. Лики. Медиакультуры и маски политики. – М.: Изда-во РАГС, 2010.

[5] Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека / пер. с англ. В. Г. Николаева. – М.: КАНОН-пресс-Ц; Жуковский: Кучково поле, 2003.; Тоффлер Э. Третья волна. – М.: АСТ, 2004.; Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляции. – М.: Постум, 2015.; Thompson J. B. The Media and Modernity: A Social Theory of the Media. – Cambridge: Polity Press, 1995.; Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991.; Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect. – 3rd ed. – New York: Three Rivers Press, 2014.; McQuail D. McQuail’s Mass Communication Theory. – 6th ed. – London: SAGE, 2010.; Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1999.; Allworth E. Uzbek Literary Politics. – The Hague: Mouton, 1964.; Allworth E. The Beginnings of the Modern Turkestanian Theater // Slavic Review. – 1964. – Vol. 23, no. 4. – P.676-87; Bennigsen A., Lemercier-Quelquejay Ch. La Presse et le mouvement national chez les musulmans de Russie avant 1920. – Paris; La Haye: Mouton & Co., 1964; Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islam.s. – 2001. – Vol. 41, no. 1. – P.72-88.; Dudoignon S. A., Komatsu H., Kosugi Y. (eds.). Intellectuals in the Modern Islamic World: Transmission, Transformation and Communication. – London; New York: Routledge, 2006.; Kocaoğlu T. Türkistan’da Türkçe İlk Tiyatro Eseri: Mahmud Hoca Behbudi’nin “Pederküş” (Baba Katili) Piyesi (1913) // Türklük Araştırmaları Dergisi. – 2004. – Sayı 15; Hayit B. Turkiston Rossiya Xitoy oralig‘ida. – T.: Yangi asr avlodi, 2023.

tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari” amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy muhitda “matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasining nazariy-metodologik asoslari, omillari va namoyon bo‘lish mezonlarini ochib berish hamda 1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti misolida mazkur fenomenning tarixiy tadriji va o‘ziga xos xususiyatlarini kompleks tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

matbuot yashovchanlik immunitetiga ta’sir etuvchi omillar va uning namoyon bo‘lish mezonlarini tizimli tahlil qilish orqali uning mazmun-mohiyatini ochib berish;

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ijtimoiy-siyosiy va axborot muhitida milliy matbuotning tutgan o‘rnini belgilash;

jadid matbuotining yashovchanlik tajribasini uning maqsad va maslakka sodiqligi, o‘z funksiyalarini bajarishi nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

sho‘ro matbuoti tizimining shakllanishi, mafkuraviy transformatsiyasi va yashovchanlik xususiyatlarini tadqiq etish;

jadid va sho‘ro matbuotida yashovchanlik immunitetining namoyon bo‘lish xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish;

jadid jurnalistlarining faoliyati, sho‘ro matbuoti kadrlar tizimining shakllanishini tadqiq etish orqali matbuot yashovchanligini ta’minlashda kadrlar omilining muhim ahamiyatini ochib berish;

mafkuraviy bosim va senzura sharoitida milliy o‘zlik hamda ma’naviy qadriyatlarning matbuotda ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish;

tarixiy tajriba asosida zamonaviy media muhitida matbuot yashovchanligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1906–1940-yillarda chop etilgan o‘zbek vaqtli matbuoti, jumladan, jadidlar va sho‘ro hukumati tomonidan chop etilgan gazeta va jurnallar olingan.

Tadqiqotning predmetini “matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasining nazariy asoslari, yashovchanlik omillari va namoyon bo‘lish mezonlari, o‘zgaruvchan siyosiy-ijtimoiy muhitda matbuotning faoliyat yuritish amaliyoti, 1906–1940-yillar o‘zbek matbuotining yashovchanlik xususiyatlari singari masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kompleks o‘rganishni ta’minlashga qaratilgan tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik (arxiv hujjatlarini tahlil qilish) usullari, empirik-nazariy (analiz, sintez, induksiya, deduksiya) hamda nazariy (umumlashtirish va konkretlashtirish) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilib, uning matbuotning o‘zgaruvchan muhitda asosiy ijtimoiy vazifalarini, jamoatchilik bilan aloqasini, ma’naviy-axloqiy pozitsiyasini hamda institut

sifatidagi davomiyligini saqlashga xizmat qiluvchi ichki himoya tizimi ekanligi asoslangan;

matbuotning turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda tashqi bosimlarga qarshi turishi, o‘zgarishlarga moslashishi va asosiy ijtimoiy vazifalarini davom ettirishi, shu jarayonda tanqidiy-tahliliy yondashuv orqali fikr erkinligini himoya qilishga intilishi, cheklovlar sharoitida ramziy kommunikatsiya vositasida ijtimoiy voqelikni ifodalashi, auditoriya ishonchini saqlashi hamda milliy manfaatlar va kasbiy mas’uliyatga sodiqligi tarixiy dalillar bilan ko‘rsatilib, matbuotning yashovchanlik immuniteti konsepsiyasi isbotlangan;

o‘zbek matbuotining 1906–1940-yillardagi rivojlanishi jadid va sho‘ro davrlari kesimida qiyosiy o‘rganilib, jadid nashrlarining senzura, iqtisodiy nochorlik va ijtimoiy inersiya sharoitida milliy matbuotga bo‘lgan ehtiyoj, ziyolilarning ma’rifiy-siyosiy faolligi, g‘oyaviy sobitligi va kasbiy mas’uliyati tufayli faoliyat yuritgani, sho‘ro davrida esa matbuotning vazifalari, tashkiliy tuzilishi hamda auditoriya bilan aloqasi o‘zgargani aniqlanib, uning sotsiokommunikativ transformatsiyasi asoslangan;

sovet ma’muriy-markazlashgan matbuot tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, tipologik xususiyatlari va asosiy prinsiplari xolis va qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, mafkuraviy nazorat matbuotning yashovchanlik immunitetini zaiflashtirgani, biroq uni butunlay yo‘qota olmagani, milliy o‘zlikni inkor etish va inson shaxsini qadrsizlantirishga yo‘naltirilgan axborot siyosati esa ijtimoiy voqelikni mafkuraviy qoliplar asosida aks ettirish orqali OAVda simulyativ mediareallikni shakllantirgani dalillangan;

o‘zbek matbuotining tarixiy tajribasi asosida auditoriya ehtiyojlarini anglash va uning ishonchini qozonish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrash, jurnalist kadrlar salohiyatini rivojlantirish hamda simulyativ mediareallikka tanqidiy yondashish zamonaviy global mediamuhitda matbuot yashovchanligini baholashning kompleks mezonlari sifatida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jurnalistika nazariyasiga “matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasi ilmiy istiloh sifatida kiritilishi tavsiya etilgan;

matbuotning yashovchanlik immuniteti ichki va tashqi ta’sirlar bilan o‘zaro bog‘liq tizim sifatida talqin qilinib, ularning tarixiy sharoitda namoyon bo‘lish xususiyatlari ko‘rsatib berilgan;

milliy matbuotning turli bosqichlarida barqarorlik mexanizmlarining o‘zgarishi, yashovchanlik immunitetining kuchayishi va susayishida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta’siri aniqlangan;

1906–1940-yillar Turkiston (O‘zbekiston) matbuotining tematik-tipologik tasnifi ishlab chiqilib, ular asosida yaratilgan “Jurnalistika tarixi” fan dasturi va ma’ruza, taqdimot materiallari ta’limga tatbiq etilgan;

matbuot tarixi va media barqarorligi yo‘nalishlarida tadqiqot olib boruvchi talabalar va tadqiqotchilar uchun 1906–1940-yillar davriga doir materiallar bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar umumlashtirilgan;

tadqiqot natijalari “Turkistonda milliy matbuot: yashash uchun kurash maydonida” va “Hoji Muin – ma’rifat va istiqlol fidoyisi” monografiyalarida,

“Hoji Muin. Tanlangan asarlar” to‘plami hamda “O‘zbekiston jurnalistikasi antologiyasi” nashrida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular o‘zbek matbuoti tarixiga oid manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va jadid jurnalistlari faoliyatini o‘rganishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, nazariy xulosalarning tahlil natijalari bilan asoslangani, tadqiqot obyekti sifatida birlamchi manbalar, xususan, respublika kutubxonalarining nodir fondlarida saqlanayotgan nashrlar va arxiv fondlaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati “matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasi nazariy jihatdan asoslangani, 1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti turli siyosiy tuzumlar kesimida qiyosiy tahlil qilinib, yashovchanlik nuqtayi nazaridan o‘rganilgani, olingan xulosalardan zamonaviy media yashovchanligi va milliy axborot makonining rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlarda nazariy-metodologik manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan oliy ta’lim muassasalarida “Jurnalistika tarixi”, “Media nazariyasi”, “Ommaviy kommunikatsiya nazariyasi” kabi mutaxassislik fanlarini takomillashtirish, darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlari yaratish, shuningdek, zamonaviy matbuot tizimida yashovchanlik immunitetini oshirish**,** tahririyatlar amaliyotida kontent barqarorligini ta’minlash, auditoriya ishonchini mustahkamlash va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirishda foydalanish imkoniyati bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zgaruvchan muhitda matbuotning yashovchanlik immuniteti tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

“matbuotning yashovchanlik immuniteti” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslanishi hamda yashovchanlikni ta’minlovchi ichki va tashqi omillar, immunitetning namoyon bo‘lish mezonlarini belgilash bo‘yicha chiqarilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasining ijtimoiy yo‘naltiruvchi vazifalarida foydalanilgan *(O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasining 2026-yil 15-maydagi 01-18/149-son ma’lumotnomasi).* Natijada matbuotning yashovchanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan jurnalistlar kasbiy mas’uliyatini kuchaytirish, ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligi ta’minlangan;

milliy matbuotning tashqi bosimlar sharoitida, asosan, milliy manfaatlar ustuvorligi, ziyolilarning ma’rifiy-siyosiy faolligi, g‘oyaviy sobitligi singari omillar natijasida yashovchanlik immunitetiga ega bo‘lgani, bu milliy taraqqiyotga ham xizmat qilgani bo‘yicha chiqarilgan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi muassisligida chiqadigan “Jadid” gazetasi materiallarini tayyorlashda foydalanilgan *(O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2026-yil 26-maydagi 01-03/245-son ma’lumotnomasi).* Natijada mazkur tadqiqot ishi nashr materiallarini mazmunan tizimlashtirish, ma’rifatparvarlik harakatini yangicha yondashuv asosida yoritishda muhim manba vazifasini o‘tagan;

tadqiqotda asoslangan milliy matbuotning millat ma’naviy immunitetini shakllantirishdagi, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarni saqlash hamda inson shaxsini ulug‘lashga oid chiqarilgan taklif va xulosalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “Oyina.uz” portali kontentini tayyorlashda foydalanilgan *(Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2026-yil 25-maydagi 03-918-son ma’lumotnomasi)*. Natijada portal kontenti g‘oyaviy ta’sirchanlik darajasini oshirishga erishilgan;

jurnalistlarining har qanday muhitda ham o‘z so‘zini aytishga bo‘lgan intilishi, tahliliy-tanqidiy yondashuv orqali fikr erkinligini saqlash, ramziy kommunikatsiya vositasida ijtimoiy voqelik va haqiqatni ifodalash, auditoriya ishonchini saqlab qolishga qaratilgan faoliyati haqidagi xulosalardan “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanali ayrim ko‘rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan *(“Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2026-yil 8-iyundagi 15-32/436-son ma’lumotnomasi)*. Natijada milliy manfaatlar himoyasi, milliy taraqqiyot masalalarining muhimligi haqidagi xulosalar keng jamoatchilikda yangi fikr shakllantirishda, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda yordam bergan;

o‘zbek matbuotining tarixiy tajribasida aniqlangan auditoriya ehtiyojini anglash, ishonchini qozonish, milliy-ma’naviy immunitetni mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirishga oid chiqarilgan taklif va xulosalardan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati faoliyatida foydalanilgan *(“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati” DMning 2026-yil 15-maydagi 68-son ma’lumotnomasi)*. Natijada nashrlar yashovchanligini baholashda yangicha yondashuvlarga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 8 ta, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish, shundan 8 tasi tezis, 3 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 11 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, o‘n ikki fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 240 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ish rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilib, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va

predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalar ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Matbuotning yashovchanlik immuniteti va uning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar muhitida barqarorlik omillari"** deb nomlanib, uchta fasldan iborat. *"Matbuotning yashovchanlik immuniteti: genezis va nazariy asoslar"* deb nomlangan birinchi faslda mazkur tushunchaning mohiyati, uning shakllanish ildizlari hamda nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Matbuot insoniyat tamaddunining muayyan bosqichida noyob va yashovchan ijtimoiy hodisa sifatida shakllandi. Og'zaki ijoddan zamonaviy mediagacha bo'lgan taraqqiyot davomida insonning axborot olish, fikr bildirish va muloqotga kirishish ehtiyojlari saqlanib qoldi. Matbuot yashovchanligining birlamchi asoslari ana shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi funksional xususiyatlarida mujassam. Og'zaki nutqdagi tezkorlik va jamoaviylik, qo'lyozmalardagi axborotni saqlash, maktublardagi xabarni masofaga yetkazish imkoniyatlarini matbuot davriylik, ommaviylik va uzluksizlik asosida birlashtirdi. Bu uning yashovchanlik salohiyati tarixiy genezisidayoq mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

"Matbuotning yashovchanlik immuniteti" degan tushuncha akademik adabiyotlarda aniq atama sifatida uchramasa-da, lekin kommunikatsiya va media nazariyotchilari, olim va publitsistlar ishlarining aksariyati mohiyatan bu tushunchaga bog'lanadi. Jumladan, filologiya fanlari doktori F.Mo'minov mediani koinotdagi global "axborot-energetik oqim" va sinergetika qonuniyatlari bilan asoslaydi: "...OAV xaos holatidan so'ng o'z-o'zini muvozanatga keltiradi. Ular doimiy ravishda rivojlanish, muvozanatlanish, ushbu muvozanatning buzilishi va qayta tartib o'rnatilishi jarayonida bo'ladi"[6].

Kanadalik media nazariyotchi Marshall Makluen tibbiy immunitet tushunchasini to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsion maydonga olib kirdi. M.Makluen "Mediani tushunish: insonning tashqi kengayishlari"[7] asarida mediani inson a'zolari va asab tizimining kengaytmasi hamda "mediumning o'zi – xabar" deb talqin qiladi. U inson o'zi yaratgan texnologiyalarning "asiri"ga aylanishi (Narsiss karaxtligi) madaniy halokatga yetaklashini qayd etadi hamda uning oldini olishda san'atkor tanqidiy tafakkuri orqali jamiyatni "kichik dozalarda emlab borishi" va shu yo'l bilan ruhiy karaxtlikka qarshi immunitet shakllanishini ta'kidlaydi. Biroq matbuot nafaqat inson a'zolarining tashqi kengaytmasi, balki mustaqil ijtimoiy organizm va intellektual institutdir. Unda san'atkorga xos sezish va bilish salohiyati mujassam bo'lib, matbuot ham jamiyatni ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga qarshi "emlab boradi" hamda o'zining asosiy funksiyalarini bajarish orqali ichki yashovchanligini ta'minlashga erishadi.

Har qanday ijtimoiy institut kabi matbuot ham jamiyatning siyosiy tartibi, iqtisodiy imkoniyatlari, huquqiy-institutsional me'yorlari, texnologik taraqqiyoti, madaniy saviyasi va kommunikatsiya muhiti bilan uzviy bog'liq holda yashab

[6] Муминов Ф. Валюта власти. – Т.: IDEAL PRESS, 2023. – С.124.
[7] Маклюэн Г. Понимание медиа: Внешние расширения человека. Пер.с анг. Николаев В. – М.: Кучково поле, 2003.

kelgan. Jahon matbuoti tarixiga nazar solsak, ko‘plab nashrlar senzura, siyosiy ta’qiblar, iqtisodiy tanglik, texnologik o‘zgarishlar ta’sirida yopilgan. Biroq ko‘p o‘tmay, ularning o‘rnini yangi nom va shakllardagi nashrlar egallab, ijtimoiy vazifa, kasbiy an’analar va g‘oyaviy davomiylikni saqlagan holda faoliyatni davom ettirgan. Shundan kelib chiqib, matbuot yashovchanligiga ta’sir qiladigan omillarni ichki va tashqi omillarga ajratgan holda tizimli tahlil qilish mumkin.

Tashqi omillar iqtisodiy, siyosiy, texnologik, institutsional va kommunikatsion muhit ta’siri bilan ifodalansa, ichki omillar jamiyatning axborotga ehtiyoji, jurnalistlarning kasbiy mas’uliyati va milliy manfaatlarga sodiqligi singari matbuot faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki kuchlar bilan belgilanadi.

Xalqaro tajribada ushbu fenomen Buyuk Britaniyada senzura va soliqqa qarshi nolegal nashrlar harakati hamda o‘quvchilar birdamligi, AQShda mustaqil tijoriy model (“Penny Press”) va jamoatchilik nazorati (“watchdog”) institutining qaror topishi, Fransiyada avtoritar cheklovlarga qarshi erkin so‘z kurashi misolida shakllangani ko‘rsatildi. 1906–1940-yillar Turkiston (o‘zbek) milliy matbuotida esa mazkur immunitet yanada murakkab sharoitda – mustamlakachilik bosimi, iqtisodiy qiyinchiliklar, diniy mutaassiblik to‘siqlari, inqilobiy xaos va sovet totalitar diktati ostida kechgan ketma-ket transformatsiyalarga qaramay, ma’rifatparvar ziyolilarning yuksak g‘oyalari, xalqni uyg‘otish va milliy o‘zlikni asrab qolishdek ichki ma’naviy o‘zakka tayanish orqali o‘zining betakror yashovchanlik tabiatini namoyon etdi.

“Matbuot yashovchanlik immunitetining konseptual asoslari, namoyon bo‘lish mezonlari” deb nomlangan ikkinchi faslda “matbuot yashovchanligi immuniteti” fenomenining konseptual asoslari hamda amalda namoyon bo‘lish mezonlari nazariy-empirik jihatdan tadqiq etilgan.

Faslda “immunitet” tushunchasini matbuotning ichki tabiatini aniqlashtiruvchi, uning qanday omillar hisobiga o‘z mohiyatini saqlab qolishini ko‘rsatuvchi, moslashuv jarayonida o‘z so‘zi, mas’uliyatini yo‘qotmasligini ifodalovchi ichki kuch sifatida izohlangan.

Tadqiqotda matbuot yashovchanlik immunitetining namoyon bo‘lish mezonlari sifatida quyidagi fundamental omillar asoslandi.

Matbuot yashovchanlik immunitetining muhim mezonlaridan biri haqiqatga sadoqatdir. Matbuot voqelikni shunchaki qayd etish bilan cheklanmay, uni tahlil qiladi, ijtimoiy sabab va oqibatlarini ochadi, jamoatchilikka anglatadi, zarur hollarda tanqidiy baholaydi. Shu ma’noda tanqidiy-tahliliy yondashuv matbuotning jamiyat oldidagi nazoratchilik vazifasini kuchaytiradi va uning ichki hayotiy quvvatini namoyon etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy tanqidni matbuotning “katta bir xosiyati” sifatida baholab, “Haqiqiy matbuot hech kimni xotirig‘a qaramas”[8], deydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr bildirish imkoniyati cheklangan muhitda matbuot ramz, kinoya, ishora, tagma’no, tarixiy qiyos, hajv, sukut, janriy o‘zgarishlar orqali o‘z so‘zini aytishga, tashqi muhit talablariga to‘liq taslim bo‘lmay, o‘z ijtimoiy vazifasini ado etishga harakat qiladi. “Axilles va toshbaqa haqidagi

[8] Behbudiy M.Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Akademnashr, 2021. – B.17.

mashhur paradoksda bo‘lgani kabi, senzura qanchalik tez harakat qilmasin, ezop tili uning oldida ketishda davom etadi”[9], deydi L. Losev. Bu matbuotning semantik mustaqilligini saqlab qolish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda mediareallikning hayot haqiqatiga yaqinligi ham matbuot yashovchanlik immunitetini baholash mezoni sifatida belgilandi. Nashrlar chiqib turgan bo‘lsa-da, voqelikni haqqoniy aks ettirmasa, jamoatchilik manfaatini ifodalamasa, haqiqat o‘rniga mafkuraviy ko‘rsatmalarni taqdim etsa, bu haqiqiy yashovchanlik emas, balki simulyativ barqarorlik hisoblanadi. Bunda o‘zlikni boy berib bo‘lsa-da, nashr chop etiladi (sho‘ro davri targ‘ibot nashrlari bunga misol). Demak, matbuotning mavjudligigina emas, balki o‘z vazifasini bajara olishi uning haqiqiy yashovchanligini belgilaydi.

Auditoriya ishonchi matbuot yashovchanlik immunitetining yana bir asosiy tayanchidir. Bu ishonch muntazam haqqoniylik, kasbiy mas’uliyat, faktlarga tayanish, xalq dardiga sheriklik va ma’naviy pozitsiya orqali shakllanadi. Auditoriya ishonchini yo‘qotgan matbuot ijtimoiy ta’sir kuchidan mahrum bo‘ladi.

Matbuot yashovchanlik immunitetining yana bir muhim mezoni milliy manfaatlarga sodiqlikdir. Milliy hayotning og‘riqli nuqtalarini ko‘ra oladigan, xalqning dardi, ehtiyoji va intilishlarini ifoda etadigan, jamiyatni ma’rifat, taraqqiyot va o‘zlikni anglashga chorlaydigan matbuot ma’naviy-ijtimoiy asoslari tufayli yashovchanlik kasb etadi. Jadid matbuoti faoliyatida bu mezon, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘lib, milliy uyg‘onish, ma’rifat va islohot g‘oyalari uning ichki quvvatiga aylangan.

Ushbu tahlillar asosida matbuot yashovchanlik immunitetining uch fundamental tayanchi umumlashtirildi: 1) matbuotning jamiyat uchun hayotiy-ijtimoiy ehtiyojga aylanishi; 2) o‘zgaruvchan muhitga moslashish va javob qaytarish salohiyati (latent mazmun, ezop tili, janrlar transformatsiyasi); 3) funksional davomiyligi va qayta tiklanishi.

Xulosa qilganda, matbuotning yashovchanlik immuniteti tashqi mafkuraviy bosim va senzuraga qaramay, haqiqatga sadoqat, semantik mustaqillik (ezop tili va ramziy ifodalar vositasida), auditoriya ishonchi hamda milliy manfaatlarni himoya qilish hisobiga o‘zining tub ijtimoiy missiyasini saqlab qoluvchi ichki mudofaa tizimidir; bu holat matbuotning tashkiliy jihatdan shunchaki mavjud bo‘lib turishi (simulyativ barqarorlik) emas, balki uning jamiyat uchun hayotiy ehtiyojga aylanishi, diskursiv moslashuvchanligi hamda g‘oyaviy missiyasining yangi shakllarda uzluksiz qayta tiklanishi orqali to‘laqonli namoyon bo‘ladi.

“XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va axborot muhitida milliy matbuotning o‘rni” deb nomlangan uchinchi faslda 1906–1940-yillarda o‘lkada milliy matbuot shakllangan ijtimoiy-siyosiy va axborot muhiti tahlil qilingan. Ishda Turkiston mediamuhiti uch asosiy axborot kanali orqali izohlangan: 1) rasmiy-imperiyaviy axborot tizimi; 2) rus tilidagi liberal nashrlar; 3) mahalliy-milliy matbuot. Bu kanallar bir-biriga ta’sir ko‘rsatgan, ayni paytda ular o‘rtasida g‘oyaviy kurash ham mavjud bo‘lgan.

[9] Лосев Л. Эзопов язык в русской литературе. – М.: Новое литературное обозрение, 2024. – С59.

Turkistonda milliy matbuot chor hukumati nashrlari paydo bo‘lganidan 36 yil o‘tib yuzaga keldi. 1905-yil 17-oktabr manifesti bergan imkoniyat tufayli jadid ziyolilarining sa’y-harakati bilan 1906-yildan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Oziyo”, “Tujjor” gazetalari dunyo yuzini ko‘rdi. Mazkur nashrlar ma’muriyat tomonidan 8–20 ta soni chiqishi bilanoq majburan yopilgan bo‘lsa-da, milliy jamiyatda ulkan ijtimoiy rezonans uyg‘otdi. 1912–1915-yillarda esa “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Oyna” singari ikkinchi to‘lqin nashrlari maydonga chiqib, jadid matbuotini o‘lkadagi eng nufuzli ijtimoiy institutga aylantirdi.

Chor hukumati milliy matbuotni mustamlakachilik siyosati uchun xavfli kuch deb baholadi. Shuning uchun nashrlarga ruxsat berish, ularni yopish, musodara qilish, muharrir va mualliflarni kuzatish, sudga tortish ishlarida “Oxranka”, senzura, politsiya va maxfiy xizmat xodimlari xizmatidan samarali foydalandi. Bu holat milliy matbuotning erkin rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Faslda arxiv hujjatlari asosida hukumatning matbuot ustidan nazorat tizimi ochib berilgan. Chor hukumati davrida axborot siyosati ochiq zo‘ravonlikdan ko‘ra axborot oqimini ma’muriy bo‘g‘ish, mahalliy senzorlik lavozimini sun’iy ravishda tashkil etmaslik (nashrga ruxsatni Peterburgdan yillab kuttirish), politsiya kuzatuvi va “Oxranka”ning xufya agentlari tarmog‘idan keng foydalanish, iqtisodiy qiyinchiliklarni sun’iy yuzaga keltirish orqali amalga oshirilgan. Bu davrda oldindan senzura institutining yo‘qligi sababli tanqidiy maqolalar chiqqandan keyin javobgarlikka tortish, gazetani yopish va muharrirlarni sud qilish usullari qo‘llangan. Masalan, “Taraqqiy” gazetasi 4 marta javobgarlikka tortilgan[10]. Turkistonda Rossiyaning matbuot bo‘yicha chiqarilgan huquqiy me’yorlariga amal qilingan. A. Antonov-Ovsiyenkoning ma’lumot berishicha, Rossiya matbuotining huquqiy maqomini belgilab bergan asosiy hujjat 1890-yilda tasdiqlangan va Rossiya Imperiyasi qonunlar to‘plamida e’lon qilingan “Senzura va matbuot ustavi” bo‘lgan. Bu hujjat Ichki ishlar vazirligi tarkibida ilgariroq tashkil etilgan Matbuot ishlari bo‘yicha Bosh boshqarma xodimlarining vazifalarini ham batafsil belgilab bergan[11]. 1917-yil 27-aprel kuni Muvaqqat hukumat “Matbuot to‘g‘risida”gi qarorni va u bilan bir vaqtda, 1917-yil 27-aprelda “Matbuot ishlari bo‘yicha muassasalar to‘g‘risida”gi qarorni ham qabul qildi. Bu hujjatga muvofiq, Matbuot ishlari bo‘yicha Bosh boshqarma, Chet el senzurasi qo‘mitasi, barcha mahalliy senzura organlari va matbaa inspektorlari tugatildi. Bu esa Turkistonda ham matbuotning erkin faoliyat yuritishiga asos bo‘ldi. Turkiston milliy matbuoti siyosiy jarayonlarni yoritishda (harbiy senzurani e’tiborga olmaganda) erkin faoliyat yuritdi. Biroq bu jarayon uzoq davom etmadi. Sho‘ro hukumati davrida 1922-yilda tuzilgan “Glavlit” nizomiga ko‘ra qat’iy “oldindan nazorat” tizimi o‘rnatildi. Bosmaxona, radio, nashriyotlar ustidan to‘liq markazlashgan mafkuraviy monopoliya qaror topdi.

[10] Zaripov O. “Taraqqiy” – Rossiya imperiyasi qatag‘oniga uchragan ilk milliy gazeta // O‘zbekiston tarixi jurnali, 2022. 3-son.

[11] Антонов-Овсеенко А. Роль периодической печати в формировании общественного сознания в России в 1917 г. Дисс... на соискание ученой степени доктора филологических наук. –2013. – С.47.

Turkistondagi 1906–1940-yillardagi mediamuhit tadrijini siyosiy muhit va yashovchanlik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi uch asosiy tarixiy bosqichga ajratish mumkin: 1) chor mustamlaka ma’muriyati nazorati va milliy matbuotning shakllanish bosqichi (1906–1917-yil boshi): rasmiy axborot ustidan ma’muriy monopoliya saqlangan, ammo jadid nashrlari qat’iy senzura, politsiya kuzatuvi va “Oxranka” tazyiqlari ostida muqobil milliy-ma’rifiy axborot tizimini yaratishga erishgan davr; 2) milliy-demokratik plyuralizm va siyosiy kurashlar bosqichi (1917-yil fevral – 1918-yil boshi): Muvaqqat hukumat hamda Turkiston Muxtoriyati sharoitida senzuraning keskin susayishi natijasida fikrlar xilma-xilligi yuzaga kelgan qisqa muddatli erkin mediamuhit davri. 3) bolsheviklarning mafkuraviy monopoliyasi va totalitar nazorat bosqichi (1918-yil bahori – 1940-yillar): barcha mustaqil nashrlar tugatilib, matbuot yagona partiyaviy-davlat apparatining targ‘ibot quroliga aylantirilgan va mahalliy jurnalistlar qatag‘onga uchragan davr.

Xulosa qilib aytganda, 1906–1940-yillar oralig‘ida Turkiston mediamuhiti mustamlakachilik ma’muriy tazyiqlari, qisqa muddatli demokratik erkinlik hamda sovet totalitar mafkurasi bosimini boshdan kechirgan bo‘lsa-da, ilk milliy nashrlar maydonga olib chiqqan insonning erkin yashash huquqi va taraqqiyot g‘oyasi keyingi davrlarda ham so‘nmadi.

Dissertatsiyaning “**Ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar davrida milliy matbuot tizimining evolyutsiyasi va moslashuv xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta fasldan iborat. *“Murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitda jadid matbuotining yashovchanlik tajribasi”* deb nomlangan birinchi faslda Turkistonda jadid matbuotining shakllanishi, uning yashab qolish uchun olib borgan kurashi va bu jarayondagi ichki hamda tashqi to‘siqlar tahlil qilingan.

Tadqiqotda 1906–1907-yillarda chop etilgan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Oziyo”, “Tujjor” kabi ilk milliy nashrlar jamiyatda yangi fikr uyg‘otgani asoslangan. Bu nashrlar chor hukumati matbuotiga taqlid qilmadi, balki milliy taraqqiyot, ma’rifat, o‘zlikni saqlash va jamiyatni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surdi. Shu sababli ular qisqa vaqt ichida ham mahalliy xalq, ham mustamlaka ma’muriyati e’tiborini tortdi. Jamiyatdagi illatlarni ayovsiz ochib bergan, imperiya xalqi va uning qaramog‘idagi xalqlarga qudratli deb ko‘rsatilgan davlatning asl ahvoli hamda mustamlakachilik siyosatining mohiyatini anglatuvchi yarim ochiq, yarim pardali maqolalar hukumat amaldorlarini xavotirga soldi; mahalliy ma’murlarni esa o‘z mavqelarini yo‘qotish xavfi haqida o‘ylashga majbur etdi. Faslda chor hukumati mahalliy nashrlarni yopishda amaldorlar va xufiyalarning maktub-murojaatlaridan unumli foydalangani tarixiy dalillar orqali ochib berilgan. Mahalliy aholining gazetalar faoliyatiga qarshiliklari ham bir qancha dalillar orqali ko‘rsatilgan. Jumladan, Behbudiy bir maqolasida: “...bizni birdan ellik sana muqaddamgi vaqtg‘a qaytmoqni xohlaydurg‘anlarimiz yuzda to‘qson to‘qquz prosentdur. Bu da’voni aslo mubolag‘asi yo‘qdur, bizni taraqqiyparvar muharrirlarimiz hukumatdan ziyoda aholidin tazyiq ko‘radurlar”[12], deydi. Bu

[12] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Баёни ҳол. – Т.: Академнашр, 2021. – Б.312.

gaplardan milliy matbuotga nafaqat ma’muriy, balki ichki qarshilik ham kuchli bo‘lganini anglash mumkin.

1913–1915-yillardagi “Samarqand”, “Oyna”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” nashrlari faoliyatida jadidlar avvalgi tajribadan xulosa chiqarib, matbuotni saqlab qolish uchun yangi yo‘llar izladilar. Ular obuna tashkil etish, xayriya to‘plash, reklama va e’lonlardan foydalanish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash kabi usullar orqali nashrlarni saqlab qolishga harakat qildilar. Gazeta va jurnallar xarajatining ko‘pligi, bosmaxonalarning kamligi, pochta va qog‘oz sarfining yuqoriligi, obunachilar sonining yetarli emasligi nashrlar faoliyatini qiyinlashtirgan. Agar birinchi davr nashrlari (1906–1907-yillar) siyosiy ayblovlar bilan yopilgan bo‘lsa, ikkinchi davrda (1912–1915-yillar) hukumat yangicha yo‘l tutganini ko‘rish mumkin. Endi mahalliy matbuotga qarshilik faqat siyosiy vajlar bilan emas, balki moddiy imkoniyatlarni cheklash, narx-navoni sun’iy ravishda oshirish, bosmaxonalarning nashrlar bilan hamkorligini cheklash bilan amalga oshirilgan.

Faslda milliy matbuot auditoriyasi ham tahlil qilingan. Jadid gazetalari, asosan, shahar aholisi, ziyolilar, muallimlar, talabalar, savdogarlar va ijtimoiy faol qatlam orasida o‘qilgan. Qishloq aholisi va savodsiz qatlam matbuotdan ancha uzoq bo‘lgan. Bu holat savodxonlik darajasining pastligi, gazeta o‘qish madaniyatining hali shakllanmagani va yangi g‘oyalarga ehtiyotkor munosabat bilan bog‘liq edi.

Tahlillar asosida jadid matbuotining yashovchanligi bir necha omil bilan ta’minlangani aniqlangan. Bular: jadid ziyolilarining irodasi va fidoyiligi, milliy g‘oyaga sodiqlik, ma’rifat orqali jamiyatni o‘zgartirish istagi, nashrlarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga urinishlar, auditoriya bilan aloqa o‘rnatish va to‘siqlarga qaramay yangi nashrlar tashkil etish harakatidir.

“Sho‘ro matbuoti tizimining shakllanishi hamda yashovchanligini ta’minlashning tashkiliy-amaliy asoslari” deb nomlangan ikkinchi faslda sho‘ro matbuotining tashkil etilishi, majburiy obuna, ishchi-dehqon muxbirlari harakati va devoriy gazetalar orqali markazlashgan matbuot tizimining yuzaga kelishi yoritilgan.

Bolsheviklar hokimiyatni egallagach, 1917-yil 27-oktyabrda Xalq Komissarlari Soveti matbuot to‘g‘risida “burjua xarakteridagi nashrlar”ni yopish to‘g‘risidagi V. I. Lenin imzosi bilan dekret chiqardi. V. I. Leninning: “Bu gazetalarning mavjudligiga chidash sotsialist bo‘lishdan to‘xtash demakdir”, degan so‘zlari SSSRda adabiyot va matbuot sohasidagi keyingi barcha zo‘ravonlik va taqiqlarning asosi bo‘ldi[13]. Matbuotga munosabat o‘zgardi, xususiy va mustaqil nashrlar yopilib, yangi tipdagi firqa matbuoti tashkil etildi. 1918-yil 11-iyunda Samarqandda “Mehnatkashlar o‘qi” gazetasi, 21-iyunda esa Toshkentda “Ishtirokiyun” gazetasi nashr etildi.

Sho‘ro matbuotining dastlabki davri ziddiyatli kechdi. Bir tomondan, yangi hukumat mahalliy tillarda gazeta va jurnallar tashkil etishga kirishgan bo‘lsa,

[13] Культура и власть от Сталина до Горбачева. Цензура в Советском Союзе. Документы. – М.: РОССПЭН, 2004. – С.4.

ikkinchi tomondan, milliy matbuot moddiy ta’minot, qog‘oz, bosmaxona, tarqatish va kadrlar masalasida yetarli qo‘llab-quvvatlanmadi. Matbuotda chop etilgan o‘nlab maqolalarda boshqa tildagi nashrlarga nisbatan mahalliy matbuot imkoniyatlari cheklangani mahalliy jurnalistlar tomonidan mustamlakachilik munosabatining davomi sifatida baholandi. Jumladan, Hoji Muin bu davr matbuoti haqida: “...bolsheviklar milliy matbuot ta’minotida mustamlakachilik yo‘lini tutar edilar”[14], deb yozadi.

G‘ozi Yunus “O‘zbek matbuotining holi” sarlavhali maqolasida milliy matbuotga e’tibor qaratilmayotgani, tayyorlangan nashrlar bosmaxonada oylab chop etilmay qolib ketayotganini mustamlakachilik siyosatiga bog‘laydi: “Turksentr pechat” degan idora ochdi... Bu idora kolonizaturliqni manbai bo‘lub chiqdi. Bu yerda o‘turg‘on mustamlakachilar yerli xalq uchun hech bir ishlamadi”[15].

1920-yillarga kelib, “matbuotni kuchaytirish” sho‘ro hayotidagi dolzarb masalalardan biriga aylana bordi. Gazetalarni xalq orasida keng tarqatish, ommani gazeta o‘qishga o‘rgatish, qizil choyxona, qizil burchak, klub, qiroatxonalar orqali matbuot ta’sirini kuchaytirish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Nashrlarga majburiy obuna dastlab hukumat tashkilot va idoralari doirasida boshlandi. Faqat obunachi bo‘lish emas, balki “Har bir yacheykaning bir xabarchisi va u xabarchining matbuot oshiqi bo‘lmog‘i”[16] uqtirildi. Sotsializm qurilishiga ommani jalb qilish uchun matbuotni keng yoyish va bu maqsadga erishishda ishchi-dehqon muxbirlari sonini katta armiya darajasiga yetkazish matbuotning asosiy mavzularidan biriga aylandi. “Matbuot orqali omma bilan firqa o‘rtasidagi aloqa ikki yo‘l bilan yuzaga chiqariladir: gazeta doirasiga firqa va sho‘ro hukumatining umumiy davlat va ijtimoiy tuzilish ishlariga faol suratda yordam ko‘rsatadurg‘on o‘qug‘uvchilar tabaqasini tashkil qilish yo‘li bilan; ishchi-dehqon muxbirlarining harakatini tashkil qilish yo‘li bilan”[17], deb ko‘rsatildi.

“Muxbirlar armiyasi”ning tashkil etilishi sho‘ro matbuotining o‘ziga xos tajribalaridan biri hisoblanadi. Ishchi-dehqon muxbirlarining “ko‘ngilli harakati”ni yo‘lga qo‘yish, “qalam otryadi”[18]ni tashkil etish ishlari butun Ittifoqda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham qizg‘in boshlandi va yilma-yil o‘z natijasini ko‘rsata bordi. Muxbirlar byurolari, maxsus ruknlar, o‘quv seminarlari va yo‘riqnomalar orqali “muxbirlar armiyasi” shakllantirildi. Devoriy gazetalar esa bu jarayonning muhim targ‘ibot vositasiga aylangan. Ular korxona, muassasa, qishloq va tashkilotlarda ommani matbuotga jalb qilish, kamchiliklarni fosh etish, firqa qarorlarini targ‘ib qilish vazifasini bajargan.

1930-yillarga kelib sho‘ro matbuoti qog‘oz ta’minoti, bosmaxona, tarqatish tarmog‘i, kadrlar tizimi va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ega markazlashgan davlat instituti sifatida shakllanib ulgurdi. Bu davrda matbuotning tashqi barqarorligi davlat va firqa ko‘magi bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, uning ichki

[14] Hoji Muin. Samarqandda matbuot ahvoli. // “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 27-oktyabr.
[15] Yunus G‘ozi. O‘zbek matbuotining holi // “Qizil bayroq” gazetasi, 1921-yil 16-sentyabr.
[16] Abdulhay. Matbuot frunti // “Turkiston” gazetasi, 1923-yil 3 fevral.
[17] “Matbuot va uning xizmati” // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1925-yil 2-avgust.
[18] Said Z. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar. – S.: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1927. – B.157.

erkinligi, haqiqatni mustaqil ifodalash imkoniyati tobora cheklanib borgan. Shu bois, shoʻro matbuoti rivoji matbuot yashovchanligining murakkab koʻrinishi sifatida baholanadi: u tashkiliy jihatdan kuchaygan, ammo oʻz tabiiy ijtimoiy vazifasini mustaqil bajarish imkoniyatidan mahrum boʻla boshlagan.

Bobning *"Matbuotning yangi tipologiyasi va asosiy prinsiplari"* deb nomlangan faslida shoʻro davrida oʻzbek matbuotining yangi tashkiliy-tipologik tizim asosida shakllanishi tahlil qilingan. Faslda shoʻro hukumati matbuotni erkin fikr maydoni sifatida emas, balki markazdan boshqariladigan, partiya vazifalarini bajaradigan mafkuraviy vosita sifatida rivojlantirgani asoslab berilgan.

Shoʻro matbuoti tipologiyasi jamiyatning turli qatlamlarini gʻoyaviy qamrab olish maqsadida shakllantirildi. Markaziy, respublika, viloyat, okrug va rayon gazetalari bilan bir qatorda dehqon, ishchi, komsomol, xotin-qizlar, bolalar, harbiy, hajviy, ateistik va tarmoq nashrlari yuzaga keldi. Oʻsha davrda matbuot tipologiyasi quyidagicha ta'riflandi: "Inqilobning oʻsishi va teranlashishi nisbatida shoʻro matbuotining yangi siyoqlari (tiplari) yuzaga chiqib, ma'lum shakllar ola bordi. Milliy va dehqon matbuoti yuzaga chiqdi. Kasaba, komsamul, qizil askar, xotin-qiz va ishchi matbuoti tugʻilib, oʻsib muayyan bir shakl oldi. Shoʻro va firqa matbuoti hali tugal (tip) bir siyoq ola olmadi. Gazetalarning munday siyoqlanishini, albatta, koʻrmagan edik"[19]. Darhaqiqat, bunday tipologik tarmoqlanish oʻlka matbuot tajribasida ilgari kuzatilmagan boʻlib, u shoʻro hokimiyatining jamiyatni qatlamlar boʻyicha gʻoyaviy jihatdan qamrab olishga qaratilgan markazlashgan axborot siyosatidan kelib chiqqan edi.

Dastlab poytaxt va viloyatlarda shoʻro hamda firqa gazetalari tashkil etildi. 1925-yilda milliy chegaralanishdan keyin esa Oʻzbekiston matbuoti respublika zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq rivojlantirildi. Oʻzbekistonni agrar respublikaga aylantirish maqsadiga koʻra, "Oʻzbekiston – dehqonlar mamlakati. Shunga koʻra muxbirlar orasida dehqonlar koʻp boʻlishi kerak"[20], degan koʻrsatmalar asosida "Qishloqqa yuz oʻgir" shiori matbuot oldiga asosiy vazifa sifatida qoʻyildi. Natijada koʻp sonli rayon va dehqon gazetalari respublikaning agrar hayotini yoritish va unga xizmat qilish maqsadida chop etila boshladi.

Bu nashrlar tashqi tomondan matbuot tizimining kengayganini koʻrsatsa-da, mazmunan partiya siyosatiga boʻysundirilgan yagona axborot maydonini tashkil etdi.

Faslda dehqon va rayon gazetalari shoʻro matbuoti tizimining muhim boʻgʻini sifatida tahlil qilingan. Oʻzbekiston agrar respublika sifatida belgilangani uchun matbuot ham qishloq xoʻjaligi, yer-suv islohoti, kollektivlashtirish, paxtachilik va kolxoz hayotini yoritishga yoʻnaltirildi.

Faslda MTS siyosiy boʻlimlari gazetalari, zavod-fabrika nashrlari va sotsialistik musobaqa targʻibotchilari faoliyati ham oʻrganilgan. Bu nashrlar ishlab chiqarish rejalarini bajarish, "udarniklar" va "staxanovchilar" harakatini targʻib qilish, mehnatkashlarni partiya qarorlari atrofida safarbar etish vazifasini bajargan.

[19] Qodirif N. Oʻktabr va matbuot // Maorif va oʻqituvchi, 1927. 11-son, 38-bet.
[20] Ahmadjon. Oʻzbekistonning matbiot qoshinlari harakati. // "Qizil Oʻzbekiston" gazetasi, 1927-yil 5-may.

Natijada matbuot xabar tarqatuvchi vosita bo‘lishdan ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy kampaniyalarni amalga oshiruvchi tashkilotchi kuchga aylantirilgan.

Shunday qilib, 1918–1940-yillar matbuotida quyidagi yo‘nalishlarda nashrlar chop etildi:

dehqon va rayon gazetalari;
MTS siyosiy bo‘limlarining[21] gazetalari;
bolalar va yoshlar nashrlari;
xotin-qizlar nashrlari;
harbiy matbuot;
hajviy nashrlar;
ROSTA gazetalari;
ateistik nashrlar.

Faslda sho‘ro matbuotining asosiy prinsiplari ham ochib berilgan. Partiyaviylik, sinfiylik, xalqparvarlik shiori, o‘z-o‘zini tanqid, “ichki dushmanlar”ga qarshi kurash, matbuotning “kollektiv tashviqotchi, targ‘ibotchi va tashkilotchi” sifatida talqin qilinishi bu davr matbuotining bosh mezonlariga aylangan. “...pruletariat diktaturasiga binoan yolg‘iz yo‘qsullar matbuotigina davom qilib, xususiy odamlarg‘a, boshqa partiyalarga Rusiyada g‘azeta chiqarish mamnu’edir. Mana shunga qarag‘onda matbuot qanday bir davrda va qanday usul idorada bo‘lsa ham har vaqt sinfiydir”[22], deyildi. “Matbuotning lenincha ommaviylik prinsipi”ga ko‘ra, “matbuot keng xalq ommasi uchun nashr etilishi, omma fikri-zikrini, o‘y-intilishlarini, orzu-umidlarini ifoda qilishidagina emas, balki ayni choqda shu keng xalq ommasining matbuotda o‘zi faol ishtiroki bilan ham namoyon bo‘lishi, ishchi-dehqonlar matbuotning asosiy muallifi bo‘lishi lozim edi”[23]. Biroq ishchi-dehqon muxbirlarining “berkinib yotqon sirlarni ochish”ga safarbar etilishi, “dushmanning fosh etilishidagi ro‘li” bu niyatning xolis emasligini ko‘rsatdi. Matbuotda xolislik, haqqoniylik prinsiplari tilga olinmadi.

“Matbuotda milliy o‘zlik talqini hamda yashirin ifoda usullari” deb nomlangan uchinchi bobning *“Maqsad va maslak barqarorligi – matbuot yashovchanligining ichki tayanchi sifatida”* deb nomlangan birinchi faslida jadid matbuoti milliy uyg‘onish harakatining eng ta’sirchan vositasiga aylangani asoslab berilgan.

Jadid matbuotini ma’rifiy-liberal matbuot sifatida baholash mumkin. Zero, u mustamlaka sharoitida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, jamiyatdagi muammolarni tanqidiy yoritdi, turli fikrlarga o‘rin berdi va jamoatchilik muhokamasini shakllantirdi. Bu matbuot siyosiy shiorlar bilan emas, balki ma’rifat va tanqid orqali xalq ongiga ta’sir ko‘rsatdi.

Faslda millatparvarlik va milliy o‘zlik masalasi jadid publitsistikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yoritilgan. Jadidlar millatni ideallashtirmagan. Ular xalqning jaholat, befarqlik, bilimsizlik va ichki zaifliklarini ochiq ko‘rsatdilar.

---

[21] MTS (Mashina-traktor stansiyalari) – 1930-yillardan boshlab kolxoz va sovxozlarga texnika (traktor, kombayn va boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalari) xizmatini ko‘rsatuvchi davlat muassasalari.

[22] Matbuot kuni// “Turkiston” gazetasi, 1923-yil, 5-may.

[23] Ўзбекистон матбуоти 50 йил ичида. Тўплам. – Т.: В.И.Ленин номидаги Тошкент давлат университети, 1967. –Б.16.

Bu tanqid xalqni kamsitish uchun emas, balki uni uyg‘otish, o‘z taqdiri uchun mas’uliyatni his etishga chorlash uchun xizmat qildi. Jadid matbuotida millat g‘aflatda qolgan, ammo uyg‘onishga qodir ijtimoiy kuch sifatida tasvirlangan. Matbuot xalqqa uning haqiqiy ahvolini ko‘rsatuvchi oyna vazifasini bajardi. Undagi tanqid, murojaat va da’vatlar millatni ma’naviy jihatdan tiklash, unda vatanparvarlik va mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytirishga qaratildi.

Faslda jadid matbuotining yana bir muhim xususiyati – ochiq bahs-munozara va fikr almashish maydoni bo‘lgani ko‘rsatilgan. Gazeta va jurnallarda turli qarashlar, munozaralar, tanqidiy maqolalar va raddiyalar chop etildi. Muharrirlar o‘zlariga qaratilgan tanqidlarni ham e’lon qilishdan qochmadilar.

Faslda jadid matbuotida kadrlar masalasi ham alohida tahlil qilingan. Milliy matbuotning yashovchanligi, avvalo, uni tashkil etgan ziyolilarning bilim darajasi, ma’naviy jasorati va millat oldidagi mas’uliyati bilan bog‘liq edi. Jadid muharrir va mualliflari ko‘p til bilgan, tarixiy-diniy bilimga ega, dunyoqarashi keng va jamiyat muammolarini teran anglaydigan shaxslar edi.

Jadidlarning ko‘pchiligi rasmiy maqomda ham, qalban ham o‘zlarini jurnalist deb bilishgan. Masalan, “Mahmudxo‘ja Behbudiy Buxoro va Samarqand orasidagi suv masalasi yuzasidan kelib chiqqan nizo munosabati bilan o‘z takliflarini bildirish uchun gubernatur huzuriga kirganda, “Siz kim bo‘lasiz?” degan savolga “Men jurnalistman”, deb javob bergan. Chunki u xalq vakili sifatida kirib, ba’zi talablarni yetkazgan”[24].

Sho‘ro davrida katta va mas’uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritgan Fayzulla Xo‘jayev “VKP(b) XV syezdi delegatlari uchun berilgan va 1927-yil 1-dekabrda o‘z qo‘li bilan to‘ldirgan anketada kasbini “jurnalist” deb yozgan”[25].

Matbuot ular uchun kasbiy faoliyatdan ko‘ra kengroq mazmun kasb etib, millat xizmatiga aylandi. Jadid matbuoti Turkistonda milliy uyg‘onishning asosiy g‘oyaviy minbari bo‘ldi. U qisqa muddat faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, jamiyat tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uning yashovchanlik immuniteti milliy manfaatga sodiqlik, ma’rifatparvarlik mas’uliyati va jamiyatni uyg‘otishga bo‘lgan qat’iy intilishda namoyon bo‘ldi. Faslda jadidchilik davri oddiy madaniy jonlanish emas, balki milliy uyg‘onish, yangicha fikrlash va ijtimoiy faollik davri sifatida baholangan.

“Sho‘ro matbuotida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar talqini” faslida milliy o‘zlik, til, axloq, ayollar maqomi va ma’naviy qadriyatlarga munosabat sho‘ro mafkurasi hukmronligi sharoitida qanday o‘zgarib borgani tahlil qilingan. Faslda matbuotning yashovchanligi millat hayoti uchun muhim bo‘lgan masalalarni qay darajada yoritib bera olgani bilan ham belgilanishi asoslab berilgan. Tadqiqotda sho‘ro hukumati davrida milliy qadriyatlarga munosabat keskin o‘zgargani ko‘rsatilgan. Jadid matbuotida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifat, axloq va til masalalari milliy taraqqiyotning asosiy tayanchi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, sho‘ro matbuotida bu tushunchalar sinfiy va mafkuraviy mezonlar asosida qayta baholandi. Millatparvarlik “millatchilik” sifatida qoralandi,

[24] Вадуд Маҳмуд. Маҳмудхўжа Беҳбудий. 1-дафтар. Д.Жамолова табдили. // Ўзбекистон тарихи журнали. 2025. 1-сон.

[25] Бақоев М. Файзулла Хўжаев – журналист ва публицист. – Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б.35.

umuminsoniy axloq esa sinfiy kurash manfaatlariga bo‘ysundirildi. Faslda sho‘ro matbuotida inson qiyofasining o‘zgarishi ham alohida tahlil qilingan. Shaxsiy iztirob, mehr, sog‘inch, vijdon va ichki kechinmalar “mayda burjua kayfiyati” yoki “individualizm” sifatida tanqid qilingan. Uning o‘rniga mehnat rejasini bajaradigan, partiyaga sodiq, doimo safarbarlik ruhidagi “sovet kishisi” obrazi ilgari surilgan. Natijada matbuot hayotni boricha aks ettirishdan ko‘ra, mafkura talab qilgan sun’iy hayot modelini yaratishga xizmat qila boshlagan.

Til masalasi faslning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida yoritilgan. Jadid ziyolilari ona tilini millat mavjudligining asosiy belgisi deb bilib, uning davlat, ta’lim va matbuot tili sifatida rivojlanishi uchun kurashganlar. Sho‘ro hukumati dastlab turkiy tilga davlat tili maqomini bergan bo‘lsa-da, amalda rus tilining ustunligi saqlanib qolgan. Bu mahalliy xalq orasida norozilik uyg‘otgan. Matbuotda e’lon qilingan xabar va maqolalarda bu norozilik o‘z ifodasini topdi. Jumladan, bir xabarda: “Yerlilashdirishmi, ovrupolashdirish? Bir chol dehqon bergan musulmoncha arizasiga “Meniki sartskiy bilmaydi”, degan javobni olib turubdir. Firqa idorasi shu holda ekan boshqa idoralarning o‘z-o‘zidan barbodligi bilinib turmaydirmi? Buning chorasi nima?!”[26], deyiladi.

Jadidlar ayollar ta’limi, huquqi va jamiyatdagi o‘rnini milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ilgari surgan bo‘lsalar, sho‘ro matbuotida bu mavzu ko‘p hollarda siyosiy maqsadlarga bo‘ysundirildi. Ayollarni ishlab chiqarish va jamoat ishlariga jalb etish, ularni mafkuraviy front ishtirokchisiga aylantirish jarayonlari matbuot orqali keng targ‘ib etildi. Biroq bu jarayonda ayollar manfaatlaridan ko‘ra davlatning siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlari ustuvor qo‘yildi.

Mazkur faslda matbuotning yashovchanligi millat hayoti uchun eng muhim masalalarni qay darajada yoritib bergani bilan ham belgilanishi asoslab berilgan. Milliy o‘zlik, til, axloq, ma’naviy qadriyatlar, ayollar maqomi zaiflashishi millatning ham zaiflashishiga olib keladi. Ularning sinfiylashuvi kun tartibiga chiqqan jamiyatda matbuot ham mafkuraviy talablar asosida milliy qarashlarni o‘zgartirish jarayonida faol ishtirok etdi. Uning axloqiy pozitsiyasi umuminsoniy axloq normalarini inkor etgan tuzum manfaatlariga bo‘ysundirildi. Natijada matbuotning tabiiy immuniteti susaydi. Demak, matbuot yashovchanligida milliy o‘zlik va qadriyatlar masalasi uning ichki barqarorligini belgilaydigan asosiy mezonlardan biridir.

“O‘zbek matbuotida “yashirin” kommunikatsiya: usullari va ijtimoiy vazifalari” faslida XX asrning birinchi yarmida o‘zbek matbuotida qo‘llanilgan ezop tili, ramz, kinoya, tarixiy qiyos, taxallus, sukut taktikasi va hajviy ifoda singari fikrni yashirin ifodalash usullari matbuot yashovchanligining muhim belgisi sifatida tahlil qilingan. Tadqiqotda bu yashirin kommunikatsiya sifatida talqin qilinib, mustamlakachilik, senzura va mafkuraviy bosim sharoitida matbuotning o‘z ijtimoiy vazifasini saqlab qolish vositasi bo‘lgani asoslangan. Jadid matbuotida bu usul milliy uyg‘onish, ma’rifat, ozodlik, milliy manfaatlar masalalarini ramziy va tagma’noli shaklda yetkazishga xizmat qilgan. Shu orqali matbuot tashqi cheklovlarga moslashgan holda ham o‘z so‘zini ayta olgan.

[26] Yerlilashdirishmi, ovrupolashdirish?// “Turkiston” gazetasi, 1924-yil 29-may.

Chor hukumati olib borgan siyosatga nisbatan jadid ziyolilari ma’rifiy harakatlarini ma’lum bir siyosiy qoliplar ostida bajarishga majbur bo‘ldilar. Ismoil Gasprinskiy ko‘plab turkiy xalqlarning ko‘zini ochgan “Tarjumon” gazetasini 1883-yili Qrimning Rossiya tasarrufiga o‘tganining 100-yilligi munosabati bilan hamda rus va tatar tillarida nashr etish sharti bilan chiqarishga muvaffaq bo‘lgani[27], Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasini 1913-yili “Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv ostida Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etgani fikrimizga dalil bo‘ladi. Shu zaylda ma’rifatparvarlar hukmron mafkurani ochiq rad etmasdan, uning rasmiy diskurs talablarini qolip sifatida qabul qilib, milliy manfaatlar yo‘lida kurashishga bel bog‘lashdi.

Faslda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho‘lpon, G‘ozi Yunus, Hoji Muin kabi ziyolilar publitsistikasi misolida yashirin kommunikatsiyaning turli shakllari ochib berilgan. Behbudiy maqolalarida sarlavha va so‘z tanlash orqali tagma’no hosil qilgani, Munavvarqori hikoyalarida ramziy obrazlardan foydalangani, Cho‘lpon xalq qiziqchilari misolida haqiqatni bilvosita aytish an’anasini ko‘rsatgani tahlil qilingan. Jumladan, Cho‘lpon “Qiziqlar” sarlavhali maqolasida “Podshohlar, sultonlar, xonlar va beklarning qamchilaridan qon tomgan zamonlarda... xalqning og‘ir ahvolini, mamlakatning qora kunlarini, ko‘pchilik fuqaroning dard va hasratlarini bironta saroy yoki xalq qizig‘i chiqib hazil yo‘li bilan yedirib yuborar edilar”[28], deb qiziqchilik tarixi haqidagi mulohazalar ortida erkin fikr, haqiqatparvarlik va hokimiyatni tanqid qilish yo‘lini tagma’noda ko‘rsatadi. G‘ozi Yunus publitsistikasida esa kinoya, ritorik savol, tarixiy qiyos va ramzlar orqali mustamlakachilik va mahalliy boshqaruvdagi nuqsonlar tanqid qilingan.

Sho‘ro davrida ham yashirin ifoda usullaridan keng foydalanilgan. Ochiq siyosiy tanqid imkoniyatlari cheklangan sharoitda hajv, felyeton, pamflet muhim usulga aylangan. Ayniqsa, hajviy publitsistika jamiyatdagi byurokratizm, poraxo‘rlik, mansabparastlik va ijtimoiy adolatsizliklarni fosh etishda ta’sirchan vosita bo‘lgan.

Tadqiqotda taxalluslar ham yashirin kommunikatsiyaning muhim ko‘rinishi sifatida baholangan. 1920–1930-yillar matbuotida mualliflar turli yashirin imzolar orqali bir tomondan maqola mazmuni va ichki ishorasini kuchaytirgan, ikkinchi tomondan, o‘zlarini ehtimoliy ta’qib va tazyiqlardan himoya qilishga uringanlar. Sukut taktikasi esa ayrim hollarda ochiq aytilmagan fikr orqali o‘quvchiga kuchliroq ma’no yetkazish vazifasini bajargan.

Mazkur faslda yashirin ifodalash o‘zbek matbuotining tashqi bosimlarga moslashuvchanligi, milliy manfaatlarni saqlashga intilishi va haqiqatni har qanday sharoitda auditoriyaga yetkazish salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim yashovchanlik belgisi sifatida asoslangan. Jadid matbuotida u milliy uyg‘onish va ozodlik g‘oyalarini saqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, sho‘ro davrida ramziy tanqid, hajv va ikki qatlamli ma’no orqali davom etgan. Demak, matbuotning voqelikni tashqi

[27] Исмоил Гапринский ва Туркистон. Тўплам. Наим Каримов. Туркий дунё юлдузи. – Т.: Шарқ, 2005. –Б.15.
[28] Cho‘lpon. Asarlar. 4-jild. – T.: Akademnashr, 2015. – B.154.

bosimlar sharoitida yashirin kommunikatsiya usullaridan foydalanib ifodalashi matbuotning yashovchanlik immunitetini namoyon etuvchi muhim mezon hisoblanadi.

“Matbuot yashovchanligida kadrlar omili va zamonaviy media taraqqiyotida tarixiy tajriba saboqlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobning *“Sho‘ro matbuoti rivojida kadrlar ta’minoti va g‘oyaviy tarbiya masalalari”* deb nomlangan faslida 1918–1940-yillarda sho‘ro matbuotida kadrlar tarkibining shakllanishi, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, kasbiy salohiyati va mafkuraviy muhitdagi faoliyati tahlil qilingan. Faslda matbuotning yashovchanligi kadrlarning bilimi, mas’uliyati, axloqiy pozitsiyasi va ijodiy salohiyati bilan ham belgilanishi asoslab berilgan.

Sho‘ro hokimiyati dastlab matbuot ishida tajribali milliy ziyolilar, xususan, jadid jurnalistlaridan foydalandi. Biroq 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab ularning ko‘pchiligi “millatchilik” g‘oyalarini targ‘ib qilganlikda ayblanib, matbuotdan chetlatildi. Natijada sho‘ro matbuotida kasbiy tajribaga ega jurnalistlar o‘rniga partiyaga sodiq, mafkuraviy jihatdan ishonchli kadrlarni tayyorlash siyosati kuchaydi.

Faslda yangi kadrlar tayyorlash jarayoni partiya va hukumat idoralari orqali amalga oshirilgani ko‘rsatilgan. Har bir tashkilot, yacheyka, zavod, korxona va muassasa o‘z muxbiriga ega bo‘lishi talab qilindi. Partiya maktablari, kommunistik universitetlar, maxsus kurslar va matbuot bo‘limlari orqali jurnalist kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Matbuot xodimi endi faqat xabar yozuvchi yoki tahlilchi emas, balki partiya va sho‘ro hukumatining yordamchisi, tashviqotchi va jamoat xodimi sifatida baholandi.

1925-yil 22-30-noyabrda Samarqandda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasining II syezdi gazeta kadrlari tayyorlash masalasida shunday ko‘rsatma berdi: “Matbuotni bolsheviklashtirishning birinchi sharti – partiya a’zolari va komsomollardan malakali gazeta xodimlari tayyorlashdan iboratdir”[29]. Bu jurnalistlarga ideologik front xodimlari sifatida qarashga olib keldi.

Tadqiqotda sho‘ro matbuotida kadrlar siyosati ikki yo‘nalishda olib borilgani asoslangan. Birinchidan, partiya va hukumat rahbarlari matbuot ishiga keng jalb qilingan; ikkinchidan, ishchi-dehqon qatlamidan chiqqan yoshlar jurnalistlikka tayyorlangan. Nazir To‘raqulov, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, Rahim In’omov, Usmonxon Eshonxo‘jayev kabi rahbarlar nashrlarni tashkil etish, tahrir qilish va publitsistik chiqishlar orqali matbuot rivojiga ta’sir ko‘rsatganlar.

Shu bilan birga, Abdulhay Tojiyev, Hoji Muin, Vadud Mahmud, Ziyo Said, Komil Aliyev, Mannon Ramz, Qayum Ramazon, Shokir Sulaymon kabi jurnalistlar sho‘ro matbuoti taraqqiyotida faol ishtirok etganlar.

Faslda kadrlar ta’minoti masalasining ziddiyatli jihatlari ham ochib berilgan. Matbuot nashrlari soni yildan-yilga ko‘paygan bo‘lsa-da, malakali jurnalistlar yetishmovchiligi doimiy muammo bo‘lib qolgan. Ko‘p hollarda bir jurnalist bir nechta nashr yoki tahririyat ishini bajarishga majbur bo‘lgan. Tajribali kadrlar esa

[29] Эрназаров Т. Совет миллий матбуотининг вужудга келиши ва мустаҳкамланиши // Маҳаллий матбуот ходимларига ёрдам. 1964 йил, 3-4 сон.

“siyosiy ishonchlilik” mezoni asosida doimiy tekshiruv va tozalashlardan o‘tkazilgan. Bu holat matbuotning professional rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Faslda tatar jurnalistlarining o‘zbek matbuoti rivojidagi o‘rni ham alohida qayd etilgan. Ular dastlabki sho‘ro nashrlarini tashkil etish, tahrir qilish va mahalliy matbuotni yo‘lga qo‘yishda ishtirok etganlar. Biroq ularning faoliyati bir xil baholanmaydi: ayrimlari umumturkiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari ta’sirida faoliyat yuritgan bo‘lsa, boshqalari siyosiy vaziyatga moslashgan holda harakat qilgan. Bu holat matbuot kadrlari tarkibining murakkab va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi.

Jadid jurnalistlari matbuotni millatning ma’naviy ehtiyoji va taraqqiyot vositasi deb bilgan bo‘lsalar, sho‘ro jurnalistikasida kadrlar ko‘proq davlat siyosati va partiya topshiriqlarini bajaruvchi ijro kuchiga aylantirildi. Shu sababli matbuot tashqi jihatdan kengayib, tashkiliy jihatdan mustahkamlangan bo‘lsa-da, uning ichki mustaqilligi va axloqiy immuniteti zaiflashdi. Matbuotning haqiqiy yashovchanligi esa jurnalist kadrlarning milliy manfaat, haqiqat va vijdon oldidagi mas’uliyati bilan bog‘liq ekani asoslab berildi.

“Jadid jurnalistlarining sho‘ro matbuotidagi faoliyati: kasbiy vorislik va ijodiy murosa” deb nomlangan ikkinchi faslda sho‘ro hokimiyati o‘rnatilganidan keyingi dastlabki yillarda jadid jurnalistlarining matbuot sohasidagi ishtiroki tahlil qilingan. Faslda yangi tuzum shakllanayotgan o‘tish davrida sho‘ro matbuoti jadidlar yaratgan milliy-ma’rifatparvarlik an’analari, publitsistik tajriba va tahrirchilik maktabi ta’sirida rivojlangani asoslab berilgan. Sho‘ro hokimiyati dastlab mahalliy matbuotni tashkil etishda jadid ziyolilarining bilimi, qalam mahorati, til bilishi, muharrirlik va tashkilotchilik tajribasidan foydalanishga majbur bo‘ldi. Chunki yangi tuzum mahalliy tilda xalqqa ta’sir ko‘rsatuvchi matbuotni yo‘lga qo‘yish uchun tayyor milliy kadrlarga ehtiyoj sezardi. Tarixchilar ta’kidlaganidek, yangi hukumatning shakllanayotgan davrida Markaziy Osiyoda bolsheviklar zaif bo‘lib, bosmachilik harakatlari va etnik ziddiyatlar sharoitida mahalliy elitalar – jadidlar bilan ittifoqqa muhtoj edilar[30]. Shu sababli dastlabki yillarda jadidlar matbuot, maorif, madaniyat va jamoat ishlariga jalb qilindi.

Faslda jadid jurnalistlari yangi tuzum sharoitida ham millat manfaati, xalqning og‘ir ahvoli, maorif, madaniyat va ijtimoiy adolat masalalarini ko‘tarishda davom etgani ko‘rsatilgan. Ular sho‘ro hukumatini to‘la qo‘llab-quvvatlagani uchun emas, balki yangi vaziyatdan millat foydasiga foydalanish mumkin, degan umid bilan faoliyat yuritganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, G‘ozi Yunus, Hoji Muin kabi ziyolilarning faoliyati ana shu murakkab jarayonning muhim dalili sifatida tahlil qilingan.

Tadqiqotda jadid matbuotiga xos tanqidiy ruh sho‘ro nashrlariga ham ma’lum darajada ko‘chgani asoslangan. Dastlabki yillarda matbuotda maorif, mahalliy xalq huquqi, hukumat amaldorlarining loqaydligi va yangi tuzumda davom etgan mustamlakachilik kayfiyati ochiq tanqid qilingan. Cho‘lpon va G‘ozi Yunus publitsistikasi misolida bu tanqidning keskin, hayotiy va millat taqdiriga daxldor

[30] Smith J. The bolsheviks and the national question, 1917–1923. – london: ProQuest LLC. 2016. // https://books.google.es/books?id=pSZ9DAAAQBAJ&printsec=frontcover&hl=ru#v=onepage&q&f=false

mazmun kasb etgani ochib berilgan. Jumladan, Choʻlpon “Turkiston” gazetasining 1922-yil 20-oktyabrda chiqqan “Hayot-mamot masalamiz ustida”[31] sarlavhali maqolasida oʻlka Maorif komissarligi faoliyatini keskin tanqid qiladi.

Biroq 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab vaziyat tubdan oʻzgardi. Shoʻro mafkurasi kuchaygani sari jadidlar faoliyati qayta baholana boshladi. Ular “eski ziyoli”, “burjua millatchisi”, “ziyonlilar” sifatida qoralandi. Ilgari matbuot, maorif va madaniyat rivojiga qoʻshgan xizmatlari e’tirof etilmay, ularning maqola va asarlari mafkuraviy ayblovlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur faslda jadid jurnalistlarining shoʻro matbuotidagi faoliyati matbuot yashovchanligi nuqtayi nazaridan ziddiyatli jarayon sifatida baholangan. Ular yangi tuzum sharoitida ham millat, ma’rifat va erkin fikr uchun xizmat qilishga intildilar. Biroq totalitar mafkura kuchaygani sari jadid matbuotining tanqidiy ruhi, milliy gʻoyasi va ma’naviy mustaqilligi bosim ostiga olindi. Shunga qaramay, ularning publitsistik merosi oʻzbek matbuotining yashovchanlik immunitetini ta’minlagan muhim ma’naviy manba sifatida ahamiyatlidir.

“Oʻzbek matbuoti tajribasining zamonaviy matbuot yashovchanligini ta’minlashdagi ahamiyati” deb nomlangan uchinchi faslda 1906–1940-yillar oʻzbek matbuoti tajribasi bugungi media faoliyati bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Tarixiy tajriba har bir nashrning yashovchanligi uning jamiyat hayotidagi ma’naviy, ma’rifiy va ijtimoiy zarurati, ya’ni ijtimoiy missiyasi bilan belgilanishini koʻrsatadi. Matbuot, avvalo, ijtimoiy zaruratga aylangandagina yashovchanlik immunitetini yaqqol namoyon etadi. 1906-yilda “Taraqqiy”, “Xurshid” singari nashrlar maydonga chiqqanida Turkistonda na tayyor gazetxonlar qatlami, na davlat subsidiyasi, na rivojlangan matbaa tarmogʻi bor edi. Ma’muriy tazyiqlar, senzura va jamiyatdagi konservativ kuchlar qarshiligiga qaramay, ularning gʻoya va maqsadlari bir nashrdan boshqasiga oʻtib, davom etdi. Chunki mazkur nashrlar qoloqlik, jaholat va mustamlaka zulmi ostida yashayotgan oʻlka uchun ma’naviy-ma’rifiy hamda ijtimoiy zarurat edi.

Matbuotning yashovchanligi auditoriya bilan munosabatiga bevosita bogʻliq. Nashr oʻz oʻquvchilarini tabiiy va ixtiyoriy asosda toʻplagandagina barqaror auditoriyaga ega boʻladi. Shoʻro matbuoti ma’muriy buyruqlar va majburiy obuna hisobiga millionlab nusxada chop etilgan boʻlsa-da, oʻquvchi bilan samimiy aloqasini yoʻqota bordi. Uzoq davom etgan bu jarayonning ta’siri mustaqillikdan keyin ham muayyan darajada sezildi. Mustaqillik yillarida majburiy obuna amaliyoti barham topishi bilan aholining bir qismi gazeta va jurnallardan yuz oʻgirdi. Buni oʻquvchilar qatlamining ma’lum qismi ma’muriy yoʻl bilan shakllantirilgani bilan ham izohlash mumkin

XX asr boshida jadidlar oʻz nashrlari orqali amalda axborot mustaqilligi uchun kurashning ilk tarixiy modelini namoyish etdilar. Mustamlaka ma’muriyati Chor Rossiyasining rasmiy siyosatini aks ettiruvchi nashrlar vositasida mahalliy aholi ongiga qaramlik va qoloqlik psixologiyasini singdirishga intilayotgan bir paytda, qattiq senzura va nazorat mexanizmi mavjud boʻlishiga qaramay, milliy

[31] Abdulhamid Sulaymon. “Hayot-mamot masalamiz ustida // “Turkiston” gazetasi, 1922-yil 20-oktyabr.

nashrlar o‘z mazmuni va yo‘nalishini mutlaqo erkin belgilashga intildi. Rasmiy axborotni takrorlash o‘rniga, o‘lka aholisining ta’lim, til, iqtisodiy ahvol va ijtimoiy huquqlarga oid masalalarini o‘z kun tartibiga olib chiqdi. Mazkur tajriba zamonaviy matbuot uchun ham o‘z kun tartibini auditoriyaning real ehtiyojlari va milliy manfaatlardan kelib chiqib belgilash zarurligini anglatadi. Jadid publitsistikasiga xos chuqur ijtimoiy tahlil, falsafiy mushohada va o‘quvchini fikrlashga undash an’analari bugungi matbuot uchun ham muhim tayanchdir.

Matbuotning yashovchanlik immuniteti uning voqelikni qanchalik haqqoniy aks ettirishi va auditoriya uchun ahamiyatli mazmun yarata olishida namoyon bo‘ladi. Faslda J. Bodriyyarning simulyatsiyaga oid qarashlari asosida matbuotning voqelik bilan aloqasini saqlashi alohida mezon sifatida ko‘rib chiqilgan. Chor mustamlaka ma’muriyati Turkistonda mavjud bo‘lgan iqtisodiy talon-torojlik, mahalliy aholining siyosiy huquqsizligi va mustamlaka zulmini “sivilizatsiya tarqatish”, “oq podshoning g‘amxo‘rligi” va “ma’rifiy vasiylik” niqobi ostida tasvirlagan bo‘lsa, jadid matbuoti mahalliy aholining huquqsizligi, qoloqlik va ma’rifatga ehtiyojini haqqoniy yoritdi. Sho‘ro matbuoti sahifalarida tasvirlangan “baxtli kolxozchilar”, “sinfiy birdamlik”, “to‘kin-sochinlik” va “kommunizm sari ildam odimlayotgan erkin Sharq” manzaralari aslida real hayotning ideallashtirilgan, xayoliy manzaralari edi. Bu davrda matbuot yo‘q narsani xuddi bordek ko‘rsatishga xizmat qildi: u ocharchilik, qatag‘on, majburiy mehnat va milliy qarshilikning borligini niqobladi. Bodriyyar ta’biri bilan aytganda, tizim “o‘z axloqiy va siyosiy tamoyillarini saqlab qolish uchun simulyatsiya mashinasini ishga soldi”[32]. Bugungi raqamli muhitda ham bu masala dolzarb. Voqelikdan uzoqlashib, ko‘rishlar soni va shov-shuvni ustuvor qo‘ygan nashr auditoriya ishonchini, shu bilan birga yashovchanlik immunitetini zaiflashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, 1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti tajribasi matbuotning yashovchanlik immuniteti uning jamiyat uchun zarurligi, moslashuvchanlik salohiyati, har qanday muhitda ham o‘z vazifalarini bajara olishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

XULOSA

“O‘zgaruvchan muhitda matbuotning yashovchanlik immuniteti” (1906–1940-yillar o‘zbek matbuoti misolida) mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Matbuotning yashovchanlik immuniteti – tashqi bosimlar va ichki inqirozlarga qarshi turish, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va faoliyatini qayta tiklash jarayonida asosiy ijtimoiy missiyasidan chekinmaslik, milliy-ma’naviy qiyofasi, mazmuniy mustaqilligi, jamoatchilik bilan aloqasi hamda institutsional davomiyligini saqlash imkonini beruvchi ichki himoya tizimidir.

2. Matbuot yashovchanligini ta’minlovchi tashqi omillar iqtisodiy, siyosiy, texnologik va kommunikatsion muhit ta’siri bilan belgilansa, ichki omillar insonning axborotga bo‘lgan ehtiyoji, haqiqatni ifodalashga intilishi, kasbiy

[32] Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляции / Пер. с фр. А. Качалова. – М.: ПОСТУМ, 2015. – С.23-25.

mas’uliyat va milliy manfaatlarga sodiqlik kabi qadriyatlar negizida shakllanuvchi ichki salohiyat va tamoyillar majmui sifatida izohlanadi.

3. Matbuot yashovchanlik immunitetining konseptual asoslari matbuotning jamiyat uchun ijtimoiy ehtiyojga aylanishi, murakkab sharoitlarga moslashish va qarshilik koʻrsatish salohiyati hamda funksional davomiylikni taʼminlashdan iborat. Mazkur immunitet tanqidiy-tahliliy yondashuv va yashirin ifoda usullarini qoʻllash, auditoriya bilan mustahkam aloqa oʻrnatish, uning ishonchini qozonish, milliy manfaatlarni ustuvor qoʻyish hamda oʻzgaruvchan sharoitlarda ham oʻz vazifalarini bajarishida namoyon boʻladi.

4. Jadid matbuoti yashovchanligining eng asosiy ma’naviy ustuni milliy manfaatlarni qat’iy himoya qilishga qaratilgani boʻldi. Aynan mana shu ichki quvvat va gʻoyaviy qat’iyat matbuotning tashqi bosimlarga boʻysunmasdan, faol kurash olib borishiga zamin yaratdi. Jadid jurnalistlarining fidoyiligi, oʻz maslagida sobitligi, jasorati va yuksak intellektual salohiyati matbuot yashovchanligining eng muhim omiliga aylandi.

5. 1906–1940-yillardagi oʻzbek matbuoti tajribasi matbuotning yashovchanlik immuniteti xususiyatlarini asoslashga imkon beradigan oʻziga xos tarixiy laboratoriyadir. U siyosiy tuzumlar almashinuviga qaramay, oʻz missiyasini davom ettirdi: mustamlakachilik muhitida milliy uygʻonish gʻoyasining bosh tashuvchisiga aylandi; senzura, ma’muriy toʻsiqlar, moliyaviy qiyinchiliklar, ommaviy savodsizlik va kadrlar taqchilligi kabi ogʻir sinovlarni yengib oʻtdi. Shoʻro hukumati davrida esa totalitar mafkuraning quroliga aylansa-da, yashirin ifoda usullari orqali oʻz soʻzini ayta oldi.

6. Mahalliy tillarda chop etilgan shoʻro matbuoti garchi hukumat nazoratida boʻlsa-da, ilk davrlarda mustamlakachilik siyosati tufayli iqtisodiy va tashkiliy qiyinchiliklarga duch keldi. Biroq vaqt oʻtishi bilan u targʻibot quroliga aylantirildi: devoriy gazetalar va ishchi-dehqon muxbirlari harakati yoʻlga qoʻyildi, ma’muriy-markazlashgan matbuot tizimi, uning tipologiyasi va faoliyat prinsiplari shakllantirildi.

7. Shoʻro davrida milliy-ma’naviy mazmun mafkuraviy qoliplar asosida qayta talqin qilindi: “yangi sotsialistik madaniyat” va “sinfiy axloq” tushunchalari zoʻrma-zoʻraki singdirilib, “kollektiv ong” va “kollektiv oʻzlik” targʻib qilindi. Natijada voqelikni asl holicha yoritish oʻrnini simulyativ mediareallikni yaratish egalladi. Bu jarayon matbuotni jamoatchilik ehtiyojlaridan uzoqlashtirib, uning mustaqil fikrlash qobiliyati va asosiy ijtimoiy funksiyalarini susaytirdi.

8. Oʻzbek matbuotida “yashirin” kommunikatsiya ramz, kinoya, tarixiy qiyos, koʻp qatlamli ma’no, ezop tili, taxallus, satrlar orasida fikr ifodalash, axborotni yashirin tarzda yetkazish va sukut saqlash kabi usullar orqali namoyon boʻldi. Bu usullar matbuotning nafaqat uslubiy xususiyatlarini, balki murakkab sharoitlarda ham oʻz soʻzini ayta olishiga imkon bergan moslashuvchanlik salohiyatini ham koʻrsatadi.

9. Shoʻro matbuotida jadid jurnalistlari, respublika rahbar kadrlari, yangi partiya maktablarida ta’lim olgan hamda “quyi”dan yetishib chiqqan kadrlar faoliyat yuritdi. Sovet universitetlarida oʻzbek yoshlari ta’lim oldilar, ular gazeta va jurnallar Bosh muharrirligiga tavsiya qilindi va mafkuraviy boshqaruvga soʻzsiz

bo‘ysunadigan kadrlar avlodi shakllantirildi. 1930-yillarda matbuot agrar mavzular va qatag‘on siyosati aks etgan mafkuraviy maydonga aylandi.

10. Tarixiy tajriba matbuotning yashovchanlik immuniteti jamiyatning real ehtiyojlarini qondirish, milliy manfaatlarni himoya qilish va mazmunning yuqori ma’no-semantik salmog‘ini ta’minlashga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu bois zamonaviy muhitda media soxta sensatsiyalardan voz kechib, faktcheking, chuqur tahliliy publitsistika va axborot suverenitetiga tayanishi, mualliflik pozitsiyasini kuchaytirishi, shuningdek, olimlar tomonidan ilgari surilgan axborot odobi tamoyillari hamda kompleks nazariy yondashuvlarni amaliyotga joriy etishi orqali o‘z yashovchanlik immunitetini saqlab qolishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida chiqarilgan xulosalardan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, “Matbuotning yashovchanlik immuniteti” konsepsiyasini ilmiy muomalaga kiritish hamda jurnalistika va kommunikatsiya yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida “Media tizimlarining yashovchanligi: nazariya va amaliyot” maxsus o‘quv fani (yoki moduli)ni joriy etish;

ikkinchidan, 1906–1940-yillardagi milliy matbuotning raqamli diaxronik korpusini yaratish va ushbu tarixiy tajribani faqat xronologik yoki tematik jihatdan emas, balki alohida keyslar va ularning amaliy natijalari asosida o‘rganish;

uchinchidan, jadidlarning mustaqil noshirlik hamda jamoatchilik ko‘magiga tayanish an’analarini zamonaviy sharoitda davom ettirish. Bunda tahririyatlar faoliyatida ixtiyoriy jamoatchilik obunasi, milliy sarmoyadorlar bilan ochiq sheriklik hamda o‘quvchilar klubi kabi auditoriyaning bevosita homiyligiga asoslangan iqtisodiy modellarni amaliyotga joriy etish;

to‘rtinchidan, raqamli axborot makonida milliy tahliliy-publitsistik maktab an’analarini saqlab qolish, jamiyatning intellektual salohiyati, tanqidiy tafakkuri va ma’naviy immunitetini yuzaki fikrlash ta’siridan himoya qilish maqsadida raqamli nashrlarda mualliflik kolonkalarini hamda chuqur tahliliy kontentni rag‘batlantirish;

beshinchidan, matbuotning ishonchli ommaviy axborot vositasi sifatidagi mavqeyini saqlash uchun media mazmunidagi giperreallik hodisalariga qarshi tahririy nazorat va jamoatchilik monitoringini kuchaytirish. Bunda soxta axborot kun tartibini yaratish, soxta obunachilar va sun’iy auditoriya shakllantirish, PR-kontentni xolis jurnalistika sifatida taqdim etish, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan matn, tasvir va dipfeyklarning sun’iy yaratilganini oshkor etmasdan tarqatish singari holatlarga chek qo‘yish, tahririyat faoliyatining hisobdorligini ta’minlash zarur;

oltinchidan, bosma davriy nashrlarni milliy xavfsizlik, til va madaniy o‘zlikni asrashga xizmat qiluvchi strategik ijtimoiy institut sifatida e’tirof etish; sifatli tahliliy hamda ijtimoiy-madaniy nashrlarni maxsus jamoatchilik mediajamg‘armasi orqali tanlov asosida moliyalashtirish; bosma nashrlarning raqamli formatlarini rivojlantirish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ЖУРНАЛИСТИКИ И МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА

УНИВЕРСИТЕТ ЖУРНАЛИСТИКИ И МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА

НАМАЗОВА НИЛУФАР КАМБАРКУЛОВНА

ИММУНИТЕТ ЖИЗНЕСТОЙКОСТИ ПЕЧАТИ В ИЗМЕНЯЮЩЕЙСЯ СРЕДЕ (на примере узбекской печати 1906–1940-х годов)

10.00.09 – Журналистика (филологические науки)

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора наука (DSc)
по филологическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (DSs) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером B2025.1DSc/Fil1964.

Диссертация выполнена в Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.uzjoku.uz) и на Образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Досмухамедов Хуршид Набиевич** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Каримов Баходир Нурметович** доктор филологических наук, профессор
	Маматова Якутхон Мухаммаджоновна доктор филологических наук, профессор
	Машарипова Тамара Жолдасбаевна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Узбекский государственный университет мировых языков**

Защита диссертации состоится «19» ноября 2026 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12. Fil.03.01 по присуждению ученых степеней при Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Адрес: 100147, г. Ташкент, Марказ-5, дом 88. Тел.: (99871) 207–09–06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана. (Зарегистрирована за номером __). (Адрес: 100147, г. Ташкент, Марказ-5, дом 88. Тел.: (99871) 207–09–06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Автореферат диссертации разослан «10» ноября 2026 года.

(Протокол реестра рассылки за №143 от «10» ноября 2026 года).

Шерзодхон Кудратхужа
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

Аъзамжон Сафаров
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н. (DSc), доцент

Нозима Муратова
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы. В период стремительных изменений глобальной информационной среды обеспечение устойчивого функционирования традиционных средств массовой информации, в частности печати, и повышение возможностей их жизнестойкости становятся все более актуальными задачами. Жизнестойкость медиа как одно из приоритетных направлений развития международной медиасферы становится важным условием обеспечения информационной безопасности и демократических коммуникационных процессов. В условиях сокращения традиционных источников дохода, изменения информационного потребления аудитории, распространения дезинформации, войн, а также различных форм политического и экономического давления приобретает большое значение устойчивое развитие средств массовой информации, в том числе печати.

В мире проводится множество научных исследований по вопросам адаптации печати к новой технологической, социальной и коммуникационной среде, интеграции печатных изданий с цифровыми платформами, социальными сетями и гибридными форматами, а также их содержательного и организационного обновления. Вместе с тем, возрастает необходимость изучения вопросов обеспечения жизнестойкости печати в современной изменяющейся информационной среде на основе изучения ее исторического опыта.

В нашей стране в последние годы на основе задач, определенных Стратегией «Узбекистан–2030», особое внимание уделяется развитию деятельности средств массовой информации, обеспечению прав граждан на получение информации и поддержке сферы журналистики. Указанная в Стратегии задача по «дальнейшему усилению гарантий реализации прав граждан на свободный поиск, получение и распространение информации»[1] непосредственно связана со свободным и стабильным функционированием средств массовой информации, в том числе печати. Способность печати в современных изменяющихся условиях, наряду с обновлением форм деятельности и способов финансирования, выполнять такие социальные функции, как предоставление достоверной информации и выражение общественного мнения, то есть ее жизнестойкость, является одним из важных условий практической реализации информационных прав граждан. Исходя из этого, важное значение имеет обоснование сущности иммунитета жизнестойкости печати, а также изучение исторического опыта узбекской национальной печати. Ведь в условиях резких социально-политических изменений, происходивших в нашей стране в первой четверти прошлого века, джадидская интеллигенция боролась за сохранение печати как трибуны, служащей пробуждению нации, формированию общественного мнения и развитию. Актуальное значение имеет выявление факторов, обеспечивающих

[1] Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года» от 16 февраля 2026 года № УП-21. https://lex.uz/docs/8050769 (murojaat sanasi: 12.10.2026).

непрерывность деятельности печати, и раскрытие закономерностей ее жизнестойкости путем изучения опыта формирования узбекской печати, ее адаптации к изменяющейся среде и выживания в условиях идеологического давления.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в законах Республики Узбекистан «О науке и научной деятельности», «О принципах и гарантиях свободы информации», «О средствах массовой информации», указах Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года № УП-60, «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года № УП-6079, «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию информационной сферы и массовых коммуникаций» от 2 февраля 2019 года № УП-5653, постановлениях главы государства «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года № ПП-2909, «О дополнительных мерах по совершенствованию системы хранения и исследования древних письменных источников» от 10 февраля 2022 года № ПП-126, а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации[2]. Научные исследования, посвященные вопросам формирования, устойчивого развития и жизнестойкости средств массовой информации, в частности печати, в различных социально-политических условиях, исторического развития узбекской национальной печати, истории борьбы за ее преемственность, а также самоотверженной деятельности джадидских журналистов в данных процессах, проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в том числе в ЮНЕСКО, Международном центре журналистов, а также в Иллинойсском, Пенсильванском, Калифорнийском, Флоридском, Колумбийском, Индианском университетах (США), Оксфордском университете (Великобритания), Гамбургском университете (Германия), Университете Осло (Норвегия), Университете Торонто (Канада), Токийском университете (Япония), Московском государственном университете, Санкт-Петербургском

[2] Обзор зарубежных научно-исследовательских работ по теме диссертации был осуществлен на основе материалов следующих и других источников: https://www.gup.ru; http://www.vsu.ru; https://www.gla.ac.uk; https://iwpr.net; http://www.dom.edu; https://www.aa.com.tr/en/newsacademy/war-journalism; https://www.peaceinsight.org/en/organisations/center-for-global-peace-journalism; http://www.press.uillinois.edu; (University of Illinois Press); https://farabi.university/university; https://www.uzswlu.uz/; https://uzjoku.uz/uz.

государственном университете (Россия), Казахском национальном университете (Казахстан), университетах Стамбула, Гази (Турция), Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы, Институте узбекского языка, литературы и фольклора АН РУз, Национальном университете Узбекистана, Узбекском государственном университете мировых языков, Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан).

На основе исследований, направленных на научное обоснование факторов устойчивости печати, опыта борьбы за жизнестойкость в процессе исторического развития и, в частности, своеобразной истории функционирования узбекской печати в изменяющейся среде, был получен ряд научных результатов, в том числе следующие: обосновано, что влияние печати на формальные изменения и на расширение человеческого сознания является фактором ее жизнестойкости (Университет Торонто, Канада); сделаны выводы о том, что жизнестойкость печати связана с отсутствием симуляции в медиареальности (Университет Париж X–Нантер, Франция); обоснована энергетическая природа информации и зависимость устойчивости СМИ от психологии общества и состояния восприятия информации (Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, Узбекистан); исследована важная роль туркестанской печати в джадидском движении (Карлтон-колледж, Миннесота, США; Национальный центр научных исследований, Франция; Токийский университет иностранных языков, Япония).

